



• SO'Z CHAMANI •

Asqad
MUXTOR



84(5012)
A87

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.
Alisher Navoiy*

Asqad MUXTOR

4

Nizoniy nomli
T D P U
kutubxonasi

16+

013972/2

Toshkent
«Akademnashr»
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

A 86

A 86 Asqad Muxtor [Matn] / nashrga tayyorlovchi Ikrom Iskandar. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 128 b.

ISBN 978-9943-6362-3-1

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

Nashrga tayyorlovchi:
Ikrom ISKANDAR

O‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasasi Asqad Muxtor yaratgan badiiy tafakkur durdonalari o‘quvchilar qalbida boqiy umrini yashamoqda. «So‘z chamani» turkumida taqdim etilayotgan ushbu to‘plam atoqli yozuvchi, shoir, publitsist, tarjimon Asqad Muxtor qalamiga mansub go‘zal she’rlardan tarkib topgan.

ISBN 978-9943-6362-3-1

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

EL-YURT

Men dunyoda ko'z ochgan kunim
Guldastalar kelgan onamga.
Tug'ildi deb xursand bo'ladigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Yashash – bir dard, orzular qaynar,
Dilga tushar ezgu alanga.
Sehri tortib, mehri balqib turgan
El-yurt kerak yana odamga.

Murg'ak qalbda mehr uyg'onsin,
Ruhim o'tsin, desang, bolamga,
Avlodlarda yashamog'ing uchun
El-yurt kerak ekan odamga.

Zamon zayli bilan uzoqlarga ketsang
Yo sayohat qilsang olamga,
Ko'kragingda olib yuradigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Birdan tushsa boshga musibat,
Chidab bo'lmay qolsa alamga,
Bir so'z bilan qadding rostlaydigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Yo'ldan chalg'ib, botib gunohlarga
Holdan toyib yiqilsang hamda
Umrni boshqatdan boshlamoq bo'lsang,
Yana el-yurt kerak odamga.

Teringga sig'magan paytlar bo'ladi,
Omad kelganida, to'yda, bayramda
Quvonchlarining o'rtoqlashish uchun
El-yurt kerak ekan odamga.

Vijdon va haqiqat deya olishib,
Tushkunlikdan yengilgan damda
Oldida tiz cho'kib uzr so'rashga
El-yurt kerak ekan odamga.

Yo'llar turfa-tuman, bekat esa bir,
Armonli, yer uzra so'nggi qadamda
Manzilingga eltib qo'yadigan
El-yurt kerak ekan odamga.

MUQADDASLIK

Vatan borki, hayot – saodat bor,
Unda ulg‘aygandir oltin sevgimiz.
Dushmanni titratgan nafrat sezgimiz,
Uning mehri bilan inson baxtiyor.

Vatan deb kecharlar bahodirlar qon,
Onalar arslonday o‘g‘lidan judo,
Oshiqlar sevgisin aylaydi qurbon,
Istiqboli quyosh umrlar fido.

Ona-Vatan deymiz uni har nafas
Ulug‘lamoq uchun qadr-ehtiromin.
Neniki ko‘nglimiz bilsa muqaddas,
Sevib, Ona deya ataymiz nomin.

UMR YO'LI

Umr yo'li
 oyoq izi emas.
Uni
 na qor,
 na chang
 bosa oladi.
U qora chiziqday
Yo nurday muqaddas
Bo'lib
El ko'nglida mangu qoladi.

TABIAT

Tabiat gullaydi, so'ladi,
Fasllar o'tadi – yangragan qo'shiq.
Bizlar esa uning bir bo'lagi,
Minnati yo'q, manfaati yo'q.

Tog'lar dunyo qadar qadim ko'rinar,
Og'ir, sobir, kamtar, bag'ri to'q.
Kumush qorlar yog'ar, toshda gul unar,
Minnati yo'q, manfaati yo'q.

Yomg'irdan so'ng kamalak balqib,
Ostida daryoday mavjlanar ufq.
Ranglar, kenglik, yog'du, xushbo'y, salqin.
Minnati yo'q, manfaati yo'q.

Tabiatga faqat safar muqaddas,
Suzishga sozlangan kemadek
Yashar va sir so'rab sizni qiyamas
Hayotdan muddao nima deb.

BOSH SATRLAR

Qalamga mahkumdir har shay, har hodisa,
Dahshat-u muhabbat, iloh, gazanda...
Ammo ona-Vatan xususida esa
Yo yozmaslik kerak,
yoki yozganda

Kitobxon orzular qanotida uchsin,
Vujudi titrasin muqaddas darddan.
Hayratdan nafasi ichiga tushsin,
Bilmasin qaysi zum uni o'zgartgan.

Men-chi, yurak yutib bu safar faqat
Vatanning yo'llarin tilga olaman.
Ruhan ufqlarga talpinib qat-qat,
Uzoq-uzoqlarga nazar solaman.

Vatanim yo'llari go'yo jonli, iliq,
Yurakka tutashgan qon tomirlarim.
Ularga o'ylarim poyidor qilib,
Umrим yo'llarini men muhrladim.

Bir kun ular butun bo'yi bilan
Janglari-yu rangli salyutlari,
Sog'inchlari, so'nmas qalb o'tlari,
Taqdirlari, qator qabrlari,

Fojialar, baxtli onlari,
Visol, firoq, aziz insonlari,
O'ychan mo'ysafid-u sho'x norastalar,
Orzu, quvonch, armon, o'yi bilan,
Xullas, bir kun butun bo'yi bilan
Ko'z o'ngimga kelib yastanar.

Uning uzoq, ezgu manzillariga
Hazin g'urur bilan boqarman.
Hayot yo'llarimning so'nggi gulxanida
Men qalbimni yana yoqarman.

Ehtimol, o'shanda kelar toshib-jo'shib,
Bir umr qiynoqda bosh qotirganim –
Vatan haqidagi kichik bir qo'shiq –
Bir umr izlagan bosh satrlarim.

Men sizni atadim bosh satrlar deb,
Qalblarga ilohiy otash solingiz,
Halok bo‘lgan askar xatlaridek
Hayotga muhabbat bo‘lib qolningiz!

YASHASH OSON EMAS

Men saharda turib ishlashim kerak,
Tutqich bermas o‘ylarimni ushslashim kerak.
Oshirishim kerak misralarning kuchin
O‘zim bilan murosada yashashim uchun.

Qalb merosi butmi?

Karvon tolmasmikin?
Ezgulik chashmasi qurib qolmasmikin?
His qilishim kerak avlodlar burchin
O‘zim bilan murosada yashashim uchun.

Hayotimni surf etaman nur ishiga,
Go‘zallikning umri boqiy bo‘lishiga,
Ardoqlashga planetaning yashil tusin
O‘zim bilan murosada yashashim uchun.

Damlarni o‘lchayman misqol tarozida,
Rozilari bormi yillar orasida?
Hisoblayman kunlarning sarasin, puchin
O‘zim bilan murosada yashashim uchun.

Yashash qiyin, chunki vijdon ochiq yaraday,
Nohaqliknii darddek sezish uchun yaragay.
O‘z deb bildim o‘zgalarning g‘amin, sevinchin
O‘zim bilan murosada yashashim uchun.

NEGA SHE’R YOZASIZ?

– Nega she’r yozasiz? –

Intervyu olar
Nevaram.

...Ne yo‘llar tutash qal-
bimga,
Unga oqib tushar ne-ne daryolar,
Tog‘-u bog‘, kelajak, qadimdan...

Qalbimning eshig-u darchalari ochiq,
Lang ochiq qalbimning darbozalari.

Sezgir kapillyarlar dunyo bo‘ylab sochiq.
Yaqin-yiroqlardan keladi jola,
Baxtli xo‘rsinishlar,

dastgoh vazni,
nola,

Jang-u jadallarning ovozalari...

Har bir g‘alabada mening g‘alabam bor,
Men talofat bermagan jang yo‘q.

Qishda kirib kelar gul hidi, bahor,
Tunlari men topmagan rang yo‘q.

Dunyo go‘yo barcha qissalarin
Mening qonim bilan yozadi.
Orzum shu: sizlar ham aziz bilsalaring
Zahmatkash insonning dard-u g‘azabin.
– Nega she’r yozasiz? –

deysan pildirab,
Ko‘zingda daryolar jilvasi.
Qanday sig‘dirardim barin,
jildirab
Turmasa qalbimdan she’rim jilg‘asi?...

* * *

Uxlamay,
suq bilan
tunning sirlarini,
Tongning sofigini kuzatdim.
Kunning nurlaridan,
bog‘ning atridan
Zeb olib, she’rimni bezatdim.
She’r juda go‘zal,
misralar shirin,
Muzaning jamoli beg‘ubor ekan.

Ammo,

bosh ko‘tarib boqsam,

yana hayot

She’rimdan ming qatla husndor ekan.

VATAN

(*Gospitalga kelgan xatdan so‘ng*)

Tilimga olganim muqaddas nomingmi

Yo xasta ko‘ksimga jon bo‘ldi pinhon?

Ona tili bilan yozgan salomingmi

Yo tonggi shabboda keltirgan ilhom?

Qalbimga o‘yilgan esdaliklaringmi

Yo baxtli kishining hayot lazzati?

Bahor chog‘idagi erkaliklaringmi

Yo qondoshlik sha’ni qilgan izzating?

Yozgan maktubingda sog‘inch satrlarmi,

Mehring dostonidan shohona misra?

Seni men singari hamma qadrlarmi

Yo sevgimday sevgi yo‘qmikan sira?

* * *

Eslab yoshligimni – she'r ilhomchisin
Uyda o'ltirardim xayolchan. Biroq
Derazamni chertdi yomg'ir tomchisi,
Yer-ko'kni titratdi momaqaldiroq.
Hovlida bolalar sho'x qichqirardi:
«Naykamalak, shoyi palak, chiq!».
Meni go'yo yoshlik chaqirardi,
Meni chorlab yangrardi qo'shiq.
Men boshyalang chiqdim shoshilib,
Uning issiq kaftin sezardi yelkam.

Xotirada emas ekan yoshlik,
Yoshlik shu hayotning o'zida ekan.

SO'Z

Oq qog'oz ustida
Adashaman ba'zan
Quyuq changalzorlar
Ichra yurganday...
Fikrim kalavasin
Topa olmayman.
Izlash kerak,
U bor. U bor. U bor.

Xuddi til uchida turganday.
Yemirilar
Tabiatning uzoq
Sabr-toqatidek
Qalashgan tog'lar.
O'ylab ko'rsang,
Xuddi kecha edi
Misr ehromlari qurilgan chog'lar.
Asrlar tutashar,
Uchar yulduzlar,
Balki, planetalar uqlananadi.
Hamma narsa so'nar, yemirilar,
Faqat quyosh,
Quyosh yonadi!
Va so'z...
So'zga shunday kuch bera olur,
Mangulik baxsh etar
Inson dahosi,
Uni nuratolmas
Zamon, zamonlar!
Na zavoli bo'lar
Va na bahosi!
Oq qog'oz ustida
Uzoq adashaman
Cheksiz changalzorlar
Ichra yurganday...

* * *

Bugun bayram.
Bugun she'r bitaman.
Quvonch qamchilaydi otimni.
Ilk sevgim kechasin go'yo kutaman,
Chegarasi yo'qdir saxovatimning.
Bugun ulashaman davlatim sizga,
Quvonchlarim,
Oltinlarimni:
Kitobim,
Tonglarim,
Muhabbatim – sizga.
Oling qalbimdagi yolqinlarimni.
O'zimga – yer, vijdon,
Qo'llarim – mana.
Boshqa hech narsaning yo'qdir
keragi.
Shular bo'lsa,
Ertasiga yana
Hammasi,
Hammasi qaytib keladi!

SO‘ZLAR

Ba’zan so‘zlar «Bejoman» deb dod soladi.
Goho xuddi yov ustiga ot soladi.

Goho loqayd bo‘ladilar har narsaga,
Na g‘aflatga soladilar, na larzaga.

Esiz husnim deya o‘ksib turadilar
Yo azada go‘yo qah-qah uradilar.

O‘z o‘rnida birovga jon, birovga o‘q,
Aytib bo‘lgach, qaytib bo‘lmas, foydasi yo‘q.

Suvda birov ko‘rsangki, jon talashadi,
«Ber qo‘lingni» desang qanday yarashadi!

Oramizda bor so‘z bilan o‘ynovchilar,
Qadrin bilmay, shaldiriq deb o‘ylovchilar.

Bulbullar bor ovozlari shirin, lobar,
Sayrashlari do‘s-t-dushmanga bab-barobar.

So‘z qoldirar yaxshi otni, yomon otni,
So‘z oyoqqa turg‘izadi tumonatni.

So‘zni qayliq saylagandek sevib sayla,
To qo‘l ursa, muharrirga rashk ayla.

Gomer kabi mangulikka tanla uni.
Mangu yonar, topsang agar qalovini.

* * *

Aziz inson, senga nima kerak?
Qaylarga shoshasan, qayda manziling?
Betoqat talpinib yashaysan nega,
Oyog‘ingda bordek zanjiring?

Yoki o‘zligingda topmoqchimisan
Ilohiy qudratni, hokim mutloqni?
Qisqagina umringdan maqsad
Yoki mangulikni jilovlamoqmi?

Aminmanki, kunlardan bir kun
Biron planetani olsang ham qo‘lga,
«Bu yer yomon emas, ammo...» deb yana
Otlanarsan yo‘lga!

Nizomiy nomli
T D P U
kulabxonasi

BAHOR MEVALARI

Yomg‘irda diydiraydi shumshaygan kuzak,
Shamol dalalarda daydir qaltirab,
Gala-gala qushlar uchib ketdi,
Qolgan zag‘chalarning ko‘zi yaltiroq.

Tutlar tipirchilar yo‘l yoqasida,
Kichrayib qolganday tog‘lar jussasi.
So‘nggi yaproq bilan xayrlashar bog‘,
Chehrasida vido g‘ussasi...

Qaytarib beraman desang bahorimni,
Shu tutlarday diydirab kutardim.
O‘sha vaqtdagiday chehrangga qo‘ngan
Gulgun tong shu’lasin yana o‘pardim.

Umr uvol, uvol, bahor mevalarin,
Yoshlik bo‘salarin to‘yib totmasang.
Balki, tabiat ham shunga bezovtadir,
Nahotki, jonimga issiq topmasam...

HAVAS QILMAYMAN

Sabr tagi – oltin. Dono qoida,
Shunga amal qilib yashadim yillab.
Ammo unda qandaydir illat
Borligin sezardim gohida.

Ulg‘aydim, asablar qaqlshadi.
Sabr qayda! Naq obijo‘shman.
Har ishga bosh suqib, aytib adi-badi,
Qancha-qancha orttirdim dushman.

Endi kuzataman sabrlilarni:
“Oltin” yig‘adilar bezahmat, besas.
Eskilarmi, hozirgilarmi –
Men ularga qilmayman havas.

Ulargina oltin g‘amlarmi?
Ba’zilar yuladi o’lik-tirikdan.
Ammo uchratmadim sabr-u loqaydlikdan
Bir fazilat orttirganlarni.

HAMON HAYOT MAQSADIMDIR

Yomon niyatim yo‘q edi
Qo‘lga tosh olganimda.
Jon saqlamoq, yashash uchun
Olib yurdim yonimda.

Keyin oldim bronzani,
Hayot edi maqsadim.
Men yashashni o‘rganardim,
Mehnat edi mакtabim.

Qatlam-qatlam o‘tdi umr,
Temir oldim qo‘limga.
O‘z umidim, o‘z shuurim
Nur sochardi yo‘limga.

Endi o‘sha tosh olgandek
Qo‘lga oldim atomni.
Yana hayot maqsadimdir,
Inson derlar otimni!

YILLARIM

O, orqada qolgan mening yillarim...

Sizni unutib bo'lmas, siz – mening o'zim.

Siz – mening mehnatim, elga aytgan so'zim.

O, orqada qolgan mening yillarim!

Biringiz boqisiz, biringiz, balki, puch,

Biringiz shodliksiz, biringiz – o'kinch,

Biringiz baxtlisiz, biringiz baxtsiz.

Biringiz yarador, o'lgansiz vaqtsiz.

O, orqada qolgan mening yillarim.

Sizga nasib qilgan quvonch yuragimda,

Qalbda dardingizni olib yuraman.

Siz meni ayamay o'tda tobladingiz,

Shundan zamin uzra g'olib yuraman.

Siz mening tirmashib chiqqan zinamsiz,

Har biringiz g'isht-u men imoratman.

Siz mening daxlsiz, yolg'iz xazinamsiz,

Sizdan iboratman,

O, mening orqada qolgan yillarim.

Do'stlar ketdi tashlab qo'shiqlarni,

Men go'yo birgina ko'rib ulgurdim

Va huvullab qolgan cheksiz bo'shliqlarni

Azobli o'ylarim bilan to'ldirdim,

Sizni unutib bo'lmas, ana shunday g'amlar

Zil bosib turibdi mening ruhimni.

Ammo g‘alabali, nurafshon damlar
Ezgu ko‘rsatadi har anduhimni.
Rang-barangsiz – men ham xilma-xil,
Sizning muhringiz bor mening xulqimda.
Quvvat berdingizki, suzaman dadil
Hayot deb atalgan bebosh to‘lqinda.
Har biringiz – mening bir xislatim,
Men kelajak uchun yashadim.
Yashadim –
 men sizni o‘zim yasadim,
Sizning mazmuningiz – mening qismatim.
Bahor kelsa, ochilar basma-bas
Bultur o‘tqazilgan umid gullarim.
Siz men uchun aslo o‘tmish emas,
O, orqada qolgan mening yillarim!

MEN YASHARMAN

Shu qadar she'rlarim ko'pki qalbimda,
Barin aytolmasam netarman?
Davrning yallig'idir qaynoq hislarim,
Dilda she'rim bilan ketarman.
Ayta olganlarim kimgadir hamroh,
Aytolmaganim ham o'lmas, ular bor:
Agar keyin birov shunday she'r aytsa,
Mening hislarim ham bo'lur daxldor.

AMU

U biladi:
Uzoqlarda – Orol!
U uni ko'rganday shoshadi yalang.
U dengizga yo'lin topib borar,
Sen-chi,
Toparmisan yo'lingni, bolam?

* * *

O'lchovi bor har mahsulotning,
Xirmonda doimo tayyor tarozi;
Tonnalab o'lchaydi ishchi po'latni,
Kilometr bilan pilot parvozi.
Nahot, qo'shiq faqat tinglanar?
Nimada o'lchanar shoир ovozi?

Uning o'lchovi ham o'sha tonnalar,
O'sha kilometr, o'sha tarozi!

* * *

Hisobga olmaymiz hayotimizning
Yo'lda tushib qolgan har bir onini,
Balki, yarar edi saqlab qolmoqqa
Kimlarningdir aziz jonini.
Oltin boshoq bo'lib unarmidi, balki,
Bir shoh satr bo'lib tug'ilarmidi...
Bunday daqiqalar butun umrning,
Balki, choragidir, balki, yarmidir...

SHE'RIYAT

Bu dunyo – jo'n,

ha, bo'lgani shu.

Hamma narsa xuddi alifbo.

Daryo:

ikki qirg'oq,

orasida – suv,

Shunchaki suv,

suv, H₂O.

Mehnat:

yetti soat,

har kun yetti soat;

Tik turib yutilgan nonushta.

Nomer ilish,

kimgadir itoat.

Shunday bir xil

yozda ham qishda.

Qizlar – faqat qizlar.

Qushlar – faqat qushlar.

Sevgi –

... qo'y, bu yog'in aytmadim.

Xullas,

shundoq edi olam

va ishlar

Seni tanimagan paytlarim.

Seni tanidim-u
olam sirga to'ldi,
Yaproqni kitobday o'qiy boshladim,
Qalbimda bulbullar sayraydigan bo'ldi.
Oyga qarab turib ko'zim yoshladim.
Daryoda suv emas,
xotiralar oqar;
Daryo kechalari – uzoq yosligim.

U sohildan hijron bo'lib boqar,
Ilk bo'sam,
vafosiz chilvir sochligim.
Yo'llar – go'yo o'ylar,
bezovta, guvlagan,
Taralgan lolazor qirlardan quyi.
Huv, mening so'qmog'im
toqqa o'rланан,
Bunisi – onamning hasratli o'yi.
Bilak ham,
yurak ham toladi ishda,
So'ng ko'cham husniga to'y may kezaman.
Bayroq dastasida,
stanokda,
g'ishtda
Ming-ming qo'llar taftin sezaman.
Yulduzlar –
umrimning poydorligi,

Hayajon, mo'jiza to'la kelgusim.
Ko'zlar baxt-saodat va'da qilar jim,
Qalbni talpintirar beg'uborligi.

Yo seni tanigach hayotga qaytdim,
Yo olam boshqacha bo'lib qoldimi?
Yo'q,

sen odamzodni shunday ulg'aytding,
Kuchga to'ldirding sen uning qalbini.

Shundan

na zaharli o'q qo'rg'oshini

Va na Astrobod,

Sibir konlari,

Va na Shohimardon tosh bo'ronlari
Ega oldi sening mag'rur boshingni!
Seni tanidim-u

qalbda sehrli ganj.

Olam go'zalligi – qalbimning mulki,
Odam go'zalligi – qalbimning mulki!

Seni tanimagan sho'rliklar ayanch...

* * *

Ikki narsa og'ir ko'nglimga, asli,
Ikki narsa uchun yo'q menda bardosh:
Biri – dushmanimning shodon qahqahasi,
Biri – do'st ko'zida miltillagan yosh.

* * *

Umrim uzoq bo'lar
(Sezib turar ko'ngil) –
Barakali bo'lar, shubhasiz.
Kumush cho'qqisiga qarayman dadil:
Men bormasman unga tuhfasiz.
Qandaydir «ikkinchi umr»ni qo'msab
Zoye ketkazgim yo'q xayol kuchini.
Farzandlik, grajdanilik shonli burchini
Ado etmoq uchun berilgan fursat
Kam deb nolimayman.
Umrim bo'lar uzun,
Biror daqiqasi behuda ketmas.
Ammo
Shu yurtimni
Ko'rib to'ymoq uchun,
Sevib to'ymoq uchun yetmas,
yo'q, yetmas...

SOBIRMAN

Hammasiga sekin erishdim men,
Muhabbat ham keldi hayallab.
Bilim asta ortdi, aql kirdi shoshmay,
Tajriba ham keldi amallab.

Hamma narsa asta-sekin keldi,
U-bu ishga endi qodirman.
Bardoshim bor, hamma narsani men
Sabr bilan kutdim. Sobirman.

Endi buyog'i ham shunday bo'laversin,
Odat bo'lib qoldi sekin-astalik.
Qarilik ham kelsin sekinroq,
Shoshmay qo'ya qolsin xastalik.

O'lim qancha imillasa, mayli,
Qancha kutgin desa, hozirman.
Bir umr kutishga o'rgangan odam
Endi shosharmidim? Sobirman!

TONG EDI...

Lirik kuyday xotiramda qolgan:

Yolg'iz edik ikkov.

Tong edi.

Shaftoli shoxiga qo'nib jajji qush

Bo'y purkadi.

Eslasang edi –

Shunda

ko'kragingga tushgan gul bargini

O'ynab turib «sevaman» devding.

May tongidek toza dil so'zingga

Vafo qilding, Gulginam,

Sevding.

Bol dudoqdan uchgan u so'zingni

Sadaf chashma sasi olqadi.

Sevgi tongim kuyin o'sha chashma

Hamon

takror qilib oqadi.

«Sevgi o'zi juda keksa narsa.

Yangilaydi uni har navqiron dil».

Ne baxtlar unda,

ne umidlar,

Aniq va charog'on ko'rinsa manzil.

Ajab fasl bahor!

Uning kuyin

Bayronning romantik sozi ham chalgan.

Ko'rk topolmay o'zga
olam bo'ylab,
Faqat gulgun bahor kuyin kuylab
Alisherning dili bahr olgan.
Yolg'iz edik ikkov,
o'sha tongda
Mehrimda muhabbat torini chertding.
Shu tong esdaligin qaytib chiqmas qilib
Hayotimning qalbiga kiritding.

BOLA

Tun og'ib, tim qaro bo'lganda osmon
Mayin nafas olib uxlaydi hayot.
Oromga chulg'angan har bir tirik jon,
Hatto parrandalar qoqmaydi qanot.

Gullar ham uxlagan berkitib yuzin,
Tabiat yashashdan go'yo to'xtagan.
Hatto shabadalar daydib kun uzun,
Endi o'ngirlarga kirib uxlagan.

Hujrada bedarmon mudraydi chiroq,
Ona beshik uzra eggan boshini.
Yolg'iz shu mushtipar tun bo'yi uyg'oq,
O'pib to'yolmaydi ko'z-u qoshini.

Tun sayin bahridan kechib uyquning,
Tun sayin kamayar ko‘zlarida nur.
Umidlarga to‘lgan kuy aytib, uning
Porloq istiqbolin qilar tasavvur.

BAHODIR

Ko‘p yillar janglarda kezdi u,
Ko‘p yillar dahshatga boqdi yuzma-yuz.
Na yov yengdi uni, na hijron, qayg‘u,
Ko‘p yillar quvladi o‘lim izma-iz.
Ko‘p yillar ko‘rmadik kiprigida yosh,
Sevmas edi erka, zaif, munglini.
Go‘yoki ko‘ksida yurak emas, tosh,
Ovlay olmas edi hislar ko‘nglini.

Yumganda dunyodan so‘ng bor ko‘zini,
Hech qanday armonlar qilmadi, lekin
Bir go‘dakday aytdi «ona» so‘zini...

.....
Onani yod etmay o‘lgan bormikan?

QAYNONA

Qadim ertaklarda u ko'lankadek,
Ba'zan yovuz, ba'zan shumqadam.
Boringki,
yashirib nima qilardik –
Goho o'zimizning yozuvchilar ham...

...Yo'q, men sizni doim
ona degan
Aziz nom-la atab, ochay qulochim.
Onam menga hayot, umr bergen,
Siz bergansiz umrim quvonchin.

* * *

Oramizda erka-yu mag'rur,
So'zga chechan edi Marziya.
Chaqnar edi chehrasida nur,
Sho'x va ishchan edi Marziya.

Men yigitning aytmay otini,
Ehtiyotsiz ekan, aftidan:
Qiz ko'ziga tik qarabdi-da,
O'ylamabdi oqibatini.

Mana, endi ko‘ngli parishon,
Ko‘zlarida xayol kezadi,
Sho‘xliklardan qolmadi nishon,
O‘zin doim yolg‘iz sezadi.

Marziyaning qora ko‘ziga,
Hay, sho‘x yigit, nega ham boqding?
Nega soya solding yuziga,
Yuragida nega o‘t yoqding?...

* * *

Men ko‘p yo‘llar yurdim,
Ko‘p narsani ko‘rdim,
Goh sog‘inib,
Goho
Shodlikdan jo‘shib;
Qanot chiqqan qushday
Uyasiga sig‘may,
Yuragimda talpinar qo‘sinq.

QORAQUM

U Majnunday hushsiz to‘lg‘anar,
Beso‘naqay ulug‘.
O‘tdir qalbida,
Asrlardan beri
lovullab yonar
Bir giyoh dardida!

* * *

Ishonchsiz qadamlar...
Eshigim oldida.
Nahotki, bu sening izlaring?
O‘zing yakson etgan kishi qalbida
Senga nima kerak?
Nima izladiting?..

IKKI ESHIK ORASI

Bir qizni tanirdim yoshlikda. Hay-hay,
Bir chekkada tursin jami mahvashlar!
Xirom aylab o‘tsa tovusday,
Jilovin tortadi aravakashlar.

Ana qaddi-qomat, ana qosh-u ko‘z!
Atigi bir marta qo‘lin tutganman.

Shu bilan husniga topolmayin so‘z,
Bir umr dardiga lol o‘tganman.

Kecha... ko‘rib qoldim o‘shani. Yo Rab!
Tushimmi bu, deyman, o‘ngimmi?
O‘sha qad, o‘sha ko‘z, o‘sha gulgun lab...
Shoshgandan yo‘qotib qo‘ydim yo‘limni.

Xuddi tuman ichra, inon-ixtiyorsiz
Yurdim orqasidan qolmay bir qadam.
Trolleybusga chiqdi, men ham chiqdim tez,
Go‘yo ellik yilni tashlab yelkadan.

Qarasam, u menga berayapti joy:
– Marhamat, o‘tiring, buvajon. –
Birdan... Qanotlarim sindi, hoynahoy,
Shalvirab o‘tirdim bemajol.

Bir deyman: qariya, o‘zingni ushlagin,
Bir deyman: bu qiziq, bu juda qiziq –
Bir og‘iz gap bilan tushmagur
Topgan yoshlígimga tortdi-ku chiziq.

Xotira – ovunchoq, goh berar firib,
Umr esa bir tutam, umr bir siqim.
Qarang, bir eshikdan yigit bo‘lib kirib,
Ikkinchchi eshikdan chol bo‘lib chiqdim.

* * *

Onajoni uning,
mehriboni,
Oradan hech qil ham o‘tmagan,
Biror quvonchini, biror g‘amini,
Biror sirni darig‘ tutmagan:
Sho‘xlik qilganida urishib,
A’lo olganida qutlagan,
Qizim faqat o‘zimniki deb,
Bunday bo‘lishini sira kutmagan –
Onajoni uning,
mehriboni...

Qiz yigitni kutar bezovta,
Ko‘zda ishonch, shubha shodligi...
Unga hozir qiyin; nima desa?
Ikki so‘zga bog‘liq toleyi...
Shunday paytda onajoni esa
Go‘yo bilmas uning holini.
Bir umrlik maslahatchisi
Birdan ojiz bo‘lib qoldimi?
Onajoni uning,
mehriboni...

SHUNDAY TINCHLIK CHO'KSA...

Shunday ezgu sukunat cho'ksaki,

Tinglasam maysalar nafasin.

Chashmaning ko'ziga ko'z tikib,

sezsam

Yurakda muhabbat sharpasin.

Shunday sukut cho'ksa,

eshitsam

Kosmosda xayolning dadil qadamin,

Inonsam to'plarning tinganligiga,

Baxtli bo'lganiga olamning.

UMR

Kuni kecha shu so'rida yotganimda

Oy shu'lasi tushmas edi yuzlarimga:

Yaproqlarning titroq, yashil sharpalari

Orom olib kelar edi ko'zlarimga.

Bugun bo'lsa tanga-tanga nur tushipti.

Mijjam horg'in, uyqu bermas yorug' yulduz.

Birdaniga yuragim shuv etib ketdi:

Kuz kelipti, kuz...

BOG'IM

*Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdir oxir?*

Navoiy

O't olib ketganday lovullab, birdan
Oltinlanib sarg'aydi bog'im.
Kecha-kunduz shoshib, quvonib
Mevasini to'kar, to'kar yaprog'in.

Go'yo butun rangin, butun xush bo'yini,
Butun boyligini tashlab ketmoqchi.
Qishning oppoq, sovuq quchog'iga
Yalang'och tanasinigina tutmoqchi.

To'kil, bog'im, ishq o'tida yon!
O'zimga olgin bor ushbu xislatting.
Xayolchan kuz kuni bexosdan menga
Donishmand shoirning satrin eslatding.

MOMAQALDIROQ

Bilasizmi, yaylovdan yurganda
Birdan gumburlasa momaqaldiroq,
Chopqillab o'ynaging kelib ketadi,
Hech gapmas boladay chinqirmoq.
Eng yaqin do'stingning qo'lidan ushlab
Yugurging keladi biron chamanga.
Qalbimizda momaqaldiroqday
Zo'r quvonch yashiringan, chamamda.

BOYCHECHAK

Qor tagidan dadil bosh suzar.
Umri qisqaligin yaxshi biladi.
Ammo ko'zi tiniq, chunki dili sezar:
Bahorga so'qmoqlar ochib o'ladi.

DAQIQA VA ABADIYLIK

Daqiqa nima-yu
abadiylik qayda?
Yonma-yon yozmoq ham kulgili bir hol.
Ammo ittifoqo u abadiy satr
Tug'ib qo'ymoqligi ehtimol...

QO'SHNIM

Venerani ko'rар tushida,
Kunduz ishda uxlab qoladi.
Uyaladi qiz qarshisida,
Darsda yashirib rasmin soladi...
Bari yaxshi,
Bari yarashar,
Agar bo'lsang o'n yetti yashar...

NIHOL

Gursillab yiқildi keksa qayrag'och,
Cho'chib milt-milt etdi tunda yulduzlar.
Tarvaqaylab yotar yo'g'on, yalang'och,
Tuproqni o'pirib chiqqan ildizlar...
Atay borib ko'rdim ertasi kuni.
Go'yo chol, yonboshlab yotardi behol.
Tagida egilib, go'yoki uni
Suyab turar edi zaif bir nihol.
Xuddi yosh barglari shivirlar sekin:
«Kiftimga tashlayver keksa gavdangni...»

Bu gap bir cho'pchakka o'xshaydi, lekin
Ishongisi kelar odamning...

* * *

Daraxtlarni burkab
Oq tuman suzar.
Eshitilmas qushlar navosi.
Nega muncha g'amgin...
Nega dilni ezar
Erta bahor kuni bu kuz havosi?
Men nega yuribman
Bog'ni aylanib,
Uyda axir ishim oz emas:
Stolda yotibdi chala satrlar...
Men nega yuribman,
Ko'nglim yozilmas?..

Bir qiz,
bir yigitni ko'rdim shu damda.
Ular shoshib kelib,
tez qo'l olishdi.
Shumshaygan daraxtlar tagida, namda
Uzoq,
uzoq turib qolishdi...

Baxtliman.
O, mening toleyim ko'r kam.
Ko'nglim quvonchlarga to'ldi limmo-lim,
Chunki qayerdadir,
uzoqda bo'lsa ham,
Yer yuzida sen borsan, jonim.

CHEGARADAN O'TGANDA...

Poyezdimiz yurar,
judolik paytin
Orqaga surmoqchi bo'lganday sekin.
Hech vaqt Vatan bilan xayrlashmaganman.
Qanday bo'larkin?..

Uyqu yo'q, orqadan tong quvib yetdi.
Vatan chegarasi. Vatan chegarasi!
Gulchambarday arkning ikki yonida
Ikki chegarachi.

Shunchalik hayajon bilan kutganim
Birpasda yuz berdi, oson va sodda:
Poyezd to'xtadi-yu yana yurib ketdi...
Xayollarim qoldi sarhadda:

...Bir vaqt ark o'rnida tikanli simlar...
Jimjitlikni buzib itlar hurmasmidi?
Go'r og'ziday sovuq bir shubha
Bu ishonch o'rnida postda turmasmidi?

Shunda ham
Xoinlik chegaralarda
Ajal bazmin tez-tez qurmasmidi?

Sharqda tong nuriga ko‘milib qolgan
Gulchambarday arkdan ko‘zim uzilmas...
Do‘stliksiz chegara buzilishi mumkin,
Ammo chegarasiz do‘stlik buzilmas.

MENDAN NIMA QOLAR?

Sendan bo‘lak hech kim hisob qilolmas
Dunyodagi gunoh-savobing.
Qutsiz savollarga qutsiz javobim:
O‘lganimda mendan hech narsa qolmas.

Jonzotlarga o‘tmas mening ruhim,
Unib chiqmas mendan o‘t-o‘tloq.
Nima hojat jon qolar deb muqim
Har xil cho‘pchak bilan o‘zni ovutmoq?

Ammo ko‘zim, ko‘zim qolar faqat,
Ko‘zim yonar misli mangu alanga:
She’rlarimni o‘qiganlar, shoyad,
Mening ko‘zim bilan boqar olamga.

YANGI KUN TUG'ILAR

Yangi kun tug'ilar

oppoq kaptardek,

Momiqday ufqqa yoyilar nuri.

Ammo u: «Oh, go'zal, oh-oh, go'zall!» – deb
Chuchmal xayollarga tolganning sho'ri.

Kun osmondan tushmas. Kelmas taqdirdan.

Kim uni ter bilan undirar yerdan,

Birovlar yaratar sandonda toblab,

Birov yelkasida keltirar qoplab.

Kim parma uchidan, kim kondan topar,

Kimning ko'z nuridir, kimning qalb qo'ri.

Yangi kun tug'ilar go'yo oq kaptar,

Olamga momiqday yoyilar nuri.

* * *

«Pop» etib naqsh olma tushdi yo'lakka,

Shaffof chehrasida nur taram-taram.

Lim-lim shira to'la, chiroyli, katta,

Butun yoz quyoshi unda mujassam.

Shu payt qarg'a qo'ndi yoniga sekin,

Alang-jalang boqdi, shoshmadi,

Iflos tumshuq bilan
Tirsillama etin
Omonsiz cho'qilab yulqiy boshladi.

Go'zallikni ko'rmas, naq ko'r singari,
Xushbo'y shirada ham ta'm sezmaydi u.
Faqt olma qurtin ko'rар ko'zлari,
Undan faqt qurt izlaydi u.

* * *

Temir og'ir derlar,
Tosh og'ir derlar,
Kaftga qo'ysang
Otash og'ir derlar.
Birov aytar
Qayg'u,
Ayriliq og'ir,
Og'ir, yoring agar bo'lsa toshbag'ir.

Menga qolsa,
Eng og'iri
Bir narsa, xolos:
Qog'oz og'ir hammasidan,
Bir parcha qog'oz!
Shu so'radi bildirmasdan
Kuchni, darmonni.

Shu sovutar asta
Badanda qonni.
Shu qaddimni bukib,
Ko'zni
Nurdan qoldirar,
Shu ba'zida ko'ngilsiz
O'yga toldirar.
O'ylaymanki,
Siz ham
Ertalab,
Derazadan quyosh charaqlaganda,
Kalendar sahifasin
Varaqlaganda
Uning og'irligin
Shunday sezasiz.
Hazin bir o'y bilan uni
Zo'rg'a uzasiz...

O, bu og'ir qog'oz,
Bu varaqlarni
Zarur bo'lmasaydi har kuni yirtmoq,
Menga cho't emasdi
Tog'larni yiqmoq!

Ishongim keladi
Umrlarning

Zavolsizligiga, dardsizligiga,
Inson ruhiy qudratining
Hadsizligiga!
Ishongim keladi...

* * *

Siklonlarning bag‘rin tilib uchmoqdaman,
Akulaga o‘xshab suzar kumush kema.
Ustda zangor, pastda esa sariq dengiz,
Tomdibuloq yaylovlari kaftdakkina.

Tomdibuloq yaylovida chang to‘zg‘itib,
Bolimonning yigitlari uloq chopar.
Qulog‘imda ot dupuri, qiyqiriqlar...
Ko‘ngil shundan bir qadrdon ilinj topar.

Fazolarga chaqmoq kabi sanchilsam-da,
Ot dupuri dilni tortar yer tomonga.
O‘tsak hamki biz balog‘at bosqichidan,
Sho‘x bolalik hamon solar hayajonga.

ZARRAMA-ZARRA

O'ychan o'tdi o'smirligim mening,
Ming xayolga borardi ko'nglim.
Goh bosardi meni qattiq vahima,
Oldinda o'lim bor, muqarrar o'lim...

Bobom ulfatida
Qulooqqa chalinsa
«Inson bu dunyoda bir mehmon»ligi,
Vujudimga larza solar edi
Shafqatsiz chollarning sovuqqonligi.

Men o'lSAM-u olam yashayversa,
Shu bog'lar har bahor gullasa mensiz,
Mangu turaversa bu mag'rur tog'lar,
Kumush sharsharalar guvlasa mensiz.

Mensiz tong yulduzi hamon porlasa,
Osmonda turnalar uchsa tizilib,
Qizlar qahqahasi yangrasa mensiz...
Yo'q, axir, bu qanday adolatsizlik?!

Ammo yillar o'tib so'ndi vahima,
Qutqu ko'tarildi mening ko'nglimdan.
Bobom qatidagi o'sha chollar kabi
Men ham cho'chimayman endi o'limdan.

Yillar o'tdi, yillar o'tgan sayin
Odamlarga o'tdim men zarra-zarra.
Umrim zarra-zarra odamlarga o'tdi,
Zarra o'tgan sayin ortdi ming karra.

Sevgan gullarimga ko'z nurimni berdim,
Qilgan ishlarimga o'tdi hayotim.
Aytgan so'zlarimga qaynoq hislar o'tdi,
Ruhim, shubhalarim, o'ylarim, otim...

Bir-bir narsalarga o'tdi borligim,
Ko'zlarimdan o'tdi, o'tdi qo'limdan.
Dilimdan, tilimdan zarra-zarra o'tdim,
Endi men qo'rqlayman o'limdan!

PORTRET

Ba'zan uchrashamiz chorrahalarda,
Uzoq yo'llar bosib kelamiz.
— Shukr, tuzuk, — deymiz. Aslida esa
Yuklar, sirlar tashib kelamiz.

— Falonchi qaripti, — deymiz o'tib ketgach, —
Yuziga ajinlar tushipti yomon.
To'g'ri, qarilik ham asta ezg'ilaydi
Yo daf'atan bosar beomon.

Ammo mening chuqur ajinlarim
Na qarilik, na ohlarimdan.
Ular mening qalbim qiynoqlari,
Vijdon oldidagi gunohlarimdan.

Biri, balki, sovuq yurak bilan
Ishq haqida shivirlaganim;
Balki, dastlab ajin bo'lib tushgan
O'pich, muhabbatsiz o'g'irlaganim.

Biri uzoqlarda uzoq xat yozmay
Onamni intizor etganimdandir.
Keyin, vaqt o'tgach, pushaymon qilib,
Alamim ichimga yutganimdandir.

Homiy bo'lolmadim bir vaqt bir do'stimga,
Ko'nglimga o'y keldi: «Balki, dushmandir».
O'sha qo'rkoq bir zum mening yuzimga
Xunuk ajin bo'lib tushgandir...

Buni «bir qiliq» deb o'ylamang zinhor,
Hech kim o'z-o'zini xunukman demas.
Yo'q, mening yuzimda aytsa arzirlik
Nurli chiziqlar ham yo'q emas.

Ammo bu gal men portretga
Unday chiziqlarni atay chizmayman.
Chunki, ey navqiron, ajinsiz yuzlar,
Sizni o'layman men, sizni izlayman...

* * *

Yarim tundan keyin o'rninga yotsam,
Qonimning urishi bermaydi uyqu.
Uzoq ajdodimning ovozidir bu.
Gapir,
gapir,
gapir,
hayotsan!

Men ham bir vaqt qon bo'lib ko'pirsam,
Tinglaydigan odam bo'larmikin?
Anglaydigan odam bo'larmikin,
Yuz yillardan keyin men ham gapirsam?
Tinglaydigan bo'lsa, xo'p edi,
So'raydigan gapim ko'p edi:
– Bormi haqiqatga hamon tashnalar?
– Odam yulduzini ko'kdan uzdimi?
– Bog'lar ko'kmi?
– Tiniqmi chashmalar?
Qizlarning ibosi ezgumi?

* * *

Hujayra bo'linib, bo'lar
chilparchin,
U yo'qolar, u unutilar.
Shu qurban tufayli o'sar
yangi vujud,
Kelajakka qarab intilar.

Ona qarib-churib o'tar dunyodan
Hayot bag'ishlay, deb, bolamga.
Shunday fidoyilik evazigagina
Yangi avlod yashnar olamda.

Urug' yoriladi iliq tuproqda,
Navniholga berib harorat
kuchin.

U halok bo'ladi
Ko'z quvontiruvchi
Durkun bog'lar, mevalar uchun.

Atom yemiriladi...
keyin nima bo'lar?
Nahotki, biz hali bilmaymiz
buni?
Nahotki, shu joyga kelib
buzilsa
Ona tabiatning buyuk qonuni?!

* * *

Tushlarim, bezovta tushlarim,
Birovdan yashirgan hislarim...
Bormi shoir zoti orasida
Tushda ko'rganiga erishgan?
Bugun keksa chinor soyasida
Men chalqancha yotgan bola emishman...

Men xafahol uyg'ondim, albatta;
Quyosh hamon to'kar tunganmas nurin.
Ko'k maysalar tagidan asta
Betinim jildirab oqardi umrim.

Quchoq ochib,
Ko'kka talpinaman:
Vaqt, nimasan? Aytgil aslingni!
...Indamaydi. Faqat zangor ummon
To'ldiradi butun jismimni.

Oshiqib, kunlarni chalg'itmoq bo'lib,
Xalaqit beraman o'zimga o'zim.
Ortmoqda, ortmoqda
 orqamda yillar...
Shaffof bo'shliqlarda tinadi ko'zim.

Nahot, unda izsiz yo'qolaman?
Men inson qalbiga nazar solaman.

Men ko‘raman tong sofligida
Vaqt hukmidan xoli olamni:
Unda

terlab mehnat shodligida,
Yalangoyoq bosib shabnamni,
Yeng shimarib,
jadallik bilan,
Dilda g‘ayrat,
shijoat, dolg‘a,
Mangulikning malikasi – Go‘zallik bilan
Bahodir – Haqiqat bosmoqda olg‘a!
Deydilarki, ular
oshiq-ma’shuq ekan,
Ilk bor bir-biriga ochganda og‘ush,
Ko‘kraklari aro vaqt yanchilib ketgan
Va yillar uchqunday sachragan emish...

Oshiqaman! Yo‘qolmayin desam,
Men shularga yetishim kerak,
Ammo payqab qolaman:
ko‘rsam –
Quvlab ketayotganim – yurak!
O‘z yuragim. Olg‘a undaydi,
Tobora ildamroq qadam tashlayman.
Ehtimol, bir umr shundaydir:
Yuragim ortidan yugurib yashayman.

Goh o‘q yegan ohu izidagi
Ovchiday tantana qurishga shayman.
Ammo tutqich bermas inson yuragi,
Yuragim ortidan yugurib yashayman.

Goh yuzimda hovurin sezaman
Zamonamning issiq nafasin.
Mangulik bormidir, ey zamon,
Qanday bo‘lar, ayt, qiyofasi?

Ro‘paramdan g‘uvullaydi shamol:
«Qiyofangni men tarashlayman!».
Tarashla, tarashla! Ehtimol...
Yuragim ortidan yugurib yashayman.

Yuragim o‘rnida ba’zan ko‘raman
Yashin urgan qora qoya tosh,
Umr oqar, oqar...

Lekin u hamon
Xirosima bilan zamondosh.

Goho yurak ko‘klam yomg‘iridek
Satrimga tomadi, yashnayman.
Bir kun bag‘rim to‘lib quchamanmi deb
Yuragim ortidan yugurib yashayman...

POKLANISH

Charchab qolyapman kechki soatlarda.

Ezib yog‘ar yomg‘ir.

Shamol izg‘iydi.

Sariq suv sirqigan qamish bo‘g‘otlarda
Musicha inlari to‘zg‘iydi.

O‘zimdamni charchoq, tabiatdami yo,
Tushunmay ham qoldim, qo‘ying-chi...
Kuzgi polizlarda

«qaydam» deya go‘yo
Qo‘llarini yoyar qo‘riqchi.

Boshimda chuvalab o‘ylar qiynalar,
Unutmoqchi bo‘lgan o‘ylarim.
Dilozor rostgo‘ylik,

oshkor ta’nalar,

Nega sizni bir vaqt erkin qo‘ymadim?

Aytilmagan haq gap,

Ichga yutgan g‘azab, jur’atsizlik,
qurbsizliklarim –

Hammasi og‘riydi yaraday qaqshab,
Hamon kezaman men, mana, tun yarim...

HADIK

Yer uzra ulug'vor, sokin ruh kezar,
Ko'zga ko'char niliy osmonning rangi.
Bu orom tuyg'usi shu qadar yangi,
Dil hatto qandaydir bir hadik sezар...

Birdan nurda chaqnab kumush tanasi,
Samolyot o'tarkan solib qalldiroq,
Seskanib, qo'rquvdan bir silkindi bog',
Duv uchdi daraxtdan qushlar galasi.

Bezillab qolganmiz ruhiy dolg'alardan,
Sovuq titroq tuydim vujudimda men.
Qarasam, narida qip-qizil zamin,
Yer qip-qizil...

qirmizak olmalardan!

* * *

Bosh egib turishing hali ko'z oldimda,
Ko'z o'ngimda o'sha manzara.
Sen ketding, dard qoldi qalbimda,
Hali ham zirqirab og'riydi yara.

Sen yo'qsan, rishtalar parkand-parkand,
Og'rig'idan tunlar sassiz dodlayman,

Bir askar so‘zlarin yodlayman:
Yo‘q oyog‘i og‘rib qiyarkan...

QOG‘OZ

Junjikib yashadik biz, inim,
Qalbin ushuk oldirganlar bor.
Necha yil sovuq qor yog‘di betinim,
Boshimizdan yog‘di
qog‘oz qor.

Mahkamadan yog‘di, yog‘di boshliqdan,
Biri to‘qqiz bo‘ldi, to‘qqizi – to‘qson,
Qog‘ozing bo‘lmasa – sen yo‘qsan,
Qog‘ozi bor rahbar
yoshlikdan.

Qog‘ozi bor nodon qutuladi,
Qog‘ozi yo‘q dono tutiladi.

Qog‘oz – aql, talant, u – hukm, taqdir.
Chulg‘aganda so‘l-u sog‘ingni,
Bog‘laydi tilingni, qo‘l-oyog‘ingni,
So‘z-u imon nohaq, faqat u haqdir.

Usiz kirolmaysan –
yo‘llaring bekik –

Na ishxonang, na xilxonangga.
Tug‘uruqxonadan ham qog‘oz ushlab chiq,
Yo‘qsa, begonasan ota-onangga.

Razvedkadan oldin
huijatlarni tugib
Topshiradi soldat, jiddiy va ma'yus.
O‘limga tik borar, halol ishga yigit
Erk-u vijdon bilan qolib yuzma-yuz.
Nega o‘zligingiz faqat qog‘oz bilan,
Axir vatandasiz, axir uydasiz!
Men har kuni yo‘lga chiqsam deyman
Erk-u vijdon bilan.
Mayda-chuydasiz.

DEBOCHA

O‘limdan so‘ng tugaydi bari...
Hamlet tikiladi bosh chanog‘iga.
Yo‘q, hayotning hamma yechimlari
O‘limdan so‘ng boshlanadi-da...

Bu dunyoga kim kelib ketdi,
Ketdimi yo qoldimi boqiy?
Qolmasa, kimlarning o‘rnin band etdi,
Tuzukmidi kelmasa yoki?

Iliq nur qoldimi tirik jonlarga
Yoki yolg'iz sovuq shu marmar taxta –
Bari oydin bo'lar endi insonlarga:
Kim asl edi-yu, kim edi soxta.

Inson mangulikka keladi, asli,
Umr unga faqat debocha.
O'limdan so'ng bari tugasa,
Unda boshlamagan ma'qul emasmi?

* * *

Qish bahorga oshiq bo'lib
qoldi,
Yumshab ketdi sovuq vujudi.
Kamalakdan bel bog'ladi osmon,
Tabiatda to'y taraddudi.

Bezatilgan toychoq singari
Jilg'alar ko'pirib oqadi.
Cho'girmasin qiya qo'ndirib,
Nor yigitday tog'lar boqadi.

Dugonalar – qirlar yasangan,
Shoda marjon yonar ko'ksida.
Sochin yozib nozanin tollar
Taranadi soy ko'zgusida.

Daralarda yangrar yor-yor sadosi,
Chashmalarning ko'zi nurlanar,
Oq tuman – kelinning harir
 ro'moli,
Surnay chalib o'tar turnalar...

Ammo bahor bermadi tutqich,
Yoshligidan juda sho'x bo'ldi.
Qish uning ko'yida hansirab,
Ishq o'tida erib yo'q bo'ldi.

* * *

Yana azongacha uyqum kelmadi.
Sizda ham bo'lgandir shundayin hollar:
Ertasiga beburd, yengil tuyuladi
Uyqusizlikdagi jiddiy xayollar.
Birdan o'z to'g'rimda o'ylay boshlabman:
(Yulduzlar shuhratday ko'z qisar milt-milt)
«Ancha zo'r kitoblar yozib tashlabman,
Besh jild qilsammikan yoki olti jild?..»
Xullas, tizgin qochsa, yomon bo'larkan,
Hozir til bormaydi aytishga.
Qizig'i shundaki, oq tong otarkan,
O'ylarim ulanib ketibdi tushga.
Tushimda qandaydir xiyobon kezib

Lev Tolstoy bilan yurgan emishman.
Ko'ksi to'la kumush soqol, qo'lda kumush
uzuk,
Emishki o'zi ham yaxlit kumushdan.
Tush ekan-da, qarang, adabiyot qolib,
U menga hisobni o'rgatar emish.
— Kasr nima? — dermish menga qovoq solib,
Har savoli do'lday terlatar emish.
Axir anglatgan mish menga kasrni u:
Kasr odam emish shu turgan ko'yi.
Surat — uning asil salmog'i-yu
Maxraj — o'z haqida o'ylagan o'yil!
Ajab tushlar...
Balki, tush emasdир?
O'ngda-ku, shunaqa qoida bo'ladi:
Maxraj qancha katta bo'lsa, axir,
Kasr shuncha mayda bo'ladi...

TOSH

Eynshteyn, qabrimga oddiy tosh
Qo'yinglar deb vasiyat qilgan ekan.

Yangi tuproq. O'lan-alaf hidin
Burqitadi quyosh.
Do'ng ustida kecha yomg'ir yuvgan,

Shamol yegan oq tosh...
Baxsh etadi inson bu olamga
Aziz onlarini.
Yerdan, goho qalbdan topib berar
Oltin konlarini.
Yoshligini, ezgu hislarini
Tekin berib ketar.
Qalb qo‘rini, ko‘z nurini, hatto
Umrin sovg‘a etar.
Husnin berar, kuchin, hayotini,
Barin beayirbosh.
O‘z-o‘ziga tilab olgani-chi?
... Oddiy bir tosh.

* * *

Sendan yaxshi bilar seni xotining,
Ana u uyquda. Labida sevinch.
Mo‘ylov sabza urgan o‘spirin paytingni,
Balki, u tushida ko‘rayotgandir.
«Sevasanmi?» – deya so‘rayotgandir...
Sen bunday tush ko‘rganmisan hech?

Sendan yaxshi bilar seni xotining,
Ana o‘yga toldi. O‘z holiga qo‘y.
Dono va mehribon chollik paytingni
Ko‘z o‘ngiga keltirar, balki,

Shundan kipriklari yiltirar, balki...
Sen bu haqda surganmisan o'y?

Sendan yaxshi bilar seni xotining,
Ko'ksiga bosganda har gal qo'lingni,
Borligin unutib o'z hayotining,
Sening bosgan yo'ling dilga ko'chirar,
Har darding qaytadan og'ir kechirar...
Qayta bosganmisan taqdir yo'lingni?

Sen sevgan yurakning baxti, quvonchisan,
Sen – sevgan yurakning dardi, kulfati.
Uning har zarbiga hayotbaxsh tomchisan,
Har o't jilvasiga tomgin beg'ubor.
Deydilar, Xudoning yuzta oti bor,
Muhabbatning bordir yuz ming sifati.

* * *

Tong oldi tinch.
Yoqimsiz
Tunning qora baxmali.
Kun tug'ilmagan hali.
Olam shaklsiz.

Birdan qaydadir bir qush
Uyqusirab «chirq» etdi.

Olam tushin hurkitdi
Shu zaif tovush.

Bir nozik tovush, xolos,
Lekin ilk tovush yondi;
Bir tomchi kuy uyg'ondi,
Bir zarra olmos.

Tuman hidi anqidi,
Shitirladi yaproqlar.
Quloch yoydi atroflar,
Ufq balqidi.

Qushcha sir keltirgandi
Quyoshning ilk nuridan.
Shu tovushning sehridan
Olam shakllandil!
Olam shakllandil!

* * *

Qo'shiq havolaydi...
To'rg'ay singari
Zangor bo'shliqlarning gadosimikin?
Qo'sh qanotlimikin yoki so'zлari,
Yo kuyi osmonning sadosimikin?

Qo'shiq qarimaydi...
Nimadir sababi?
Yo u mangulikning o'zimi?
Goho o'z dilingda tug'ilgan kabi,
Kuyi sababmikin, so'zimi?

Qo'shiq odamlarga juda ham kerak,
Qo'shiq yoritadi ko'ngil uyini.
Qo'shiq sadolarin qo'msaydi yurak.
So'zi sababmikin, kuyimi?

U hammas, bu hammas.

Ikkalasining
Qovishuvi sabab bariga.
Intizoring bo'lsa olamda sening,
Chopib bor, topib bor,
Bosh qo'y bag'riga!..

* * *

Inson yo'llar solgan,
so'zlar to'qigan,
Xat ixtiro etgan, g'ildirak, eshik.
Qalbiga muhabbat cho'g'in joylagan,
Kabellar o'tkazgan tog'larni teshib.
Shahar qurgani,
kuylar bastalagan,
O'ylab topgan sharob,
samolyot,
ko'prik.
She'r o'ylab topgan,
ko'cha,
kitob,
ong,
Ijod etgan davlat,
oila,
juftlik.
Biri haq deb,
biri diydor,
biri qanot deb
Xavf-xatarlarga ochgan bag'rini...
Nazарimda, inson
yolg'izlikdan qo'rqib,
Bir-biriga muhtojlikdan
qilgan barini.

XOTIRALAR

Goh havo og‘ir, gohi ayozli,
Goh tuman quyuq...
Qarilikning fojiasi shunda:
Uning ertasi yo‘q.
Bor boyligi o‘tmish. O‘tmish esa
Olis xotiralar.
Yupanchi ham, hayot ilinji ham
Yolg‘iz xotiralar.
U yashaydi xotiralar bilan,
Ular omon bo‘lsa.
Nima qilar, xotiralari ham
Agar yomon bo‘lsa?..
U umrining hamma fasllarin
Eslar qadam-qadam;
Dahshat, agar birin xotirlashga
Nomus qilsa odam!
Ba’zan sho‘xlik gunohlarin so‘ylab
Qilolmasa hazil,
Na oldinga, na orqaga birrov
Boqolmasa dadil.
Har kimning yo‘lida bo‘lishi mumkin
Bu dahshatli tuzoq.
Sen o‘ylarsan, balki, sen kularsan:
Bunga hali uzoq.
Xotiralar lekin hozir tug‘iladi,

Har qadamda, har kun.
Yorqin bo'lsin ular!

Bir vaqt faqat

Shu qolishi mumkin...

XOM OLMA

Xom olma uzadi bolalar,
Shox sindiradi, devol buzadi.
Tergaymiz ularni, goh savalaymiz,
Ular bo'lsa hamon uzadi.

Xom olma uzadi qurg'urlar,
Qo'rqsan: artmaydi, chaymaydi,
Lippasidan olib, alanglaydi-da,
Aftin burushtirib g'arch-g'arch chaynaydi.

Xom olma uzadi bolalar
Dunyoning jamiki bog'ida.
Bola-da, bolaga nima ham deysiz,
Bog' ekan-ku, hatto san'at bobida...

Xom olma uzadi bolalar,
Yoshlikda shunday bir zamon bo'ladi,
Bu-ku, hamma uchun shunchaki ermak,
Kattalar xom uzsa, yomon bo'ladi...

TERAK

Terak shovullaydi hovli etagida,
Bolalikdan tanish, azamat terak.
Ba'zan shaloladay qattiq shovullaydi,
Ba'zan shivirlaydi bamisli yurak.

Kuz kelganda qarab o'yga tolaman,
Yellar uchiradi oltin barglarin,
Yellar esgan sari, yillar o'tgan sari
Qalbimda misqollab ortar dardlarim.

Yellar esgan sari hazin ko'rinadi
Kun sayin barglari kamaygan terak.
Yellar esgan sari, yillar o'tgan sari
Quvnoq davralarda do'stlarim siyrak.

Lekin shu terakda ko'zlarim mening,
Ko'klam yana yashnar olam singari.
Kumush shaloladay shovullar yana,
Kimgadir shivirlar hayot sirlarin...

* * *

Oradan gap qochsa, yaraday qiynar.
Shunday iz qoldirar so‘zning qamchisi.
Goh tun sukutida eshitib qolaman –
Gurs etib tushadi ko‘z yosh tomchisi.

Nima gap o‘zi?

Nahot, ko‘kdan uzilib tushgan bo‘lsa
Nikoh yoshimizning yorug‘ yulduzi?...

RUBOIY

Tog‘day quvonch o‘tar, birodar,
To‘nkaday xafalik qilar yarador.
Chunki toqqa qoqilmaysan kishi,
To‘ngakka qoqilib yiqilishing bor.

* * *

Eshik qoqayotir elligim! Tavba!

Qachon yetib kelibdi birdan?

Paytidir, o'zimni olsam qistovga,

Yolchidimmi, desam, umrdan.

Doim yorug' yulduzlar tomon

Talpinishda o'tdi yoshligim.

Naq tepamda qalqib turdi zamon,

Avvalo, zamondan, do'stlar, yolchidim.

Bildirmadi orom nimaligin,

Baxtimizni berdi misqollab.

Tiniq ranglarini ayamadi lekin,

Biron so'z yozmadim tusmollab.

Yasharkanman haqiqat g'amida,

Astoydil yolchidim, do'stlar, do'stlardan.

Yillar daryo kabi muzlaganida

Shular olib o'tdi meni muzlardan.

Shular meni ko'tarmadi ko'kka,

Xato qilganimda shular bopladi.

Hech biri qarshimda tushmadi cho'kka

Yoki eshigimni qattiq yopmadi.

Do'stlar, bu o'rinda bayon qilmayman

Sizga muhabbatdan yolchiganimni.

Bir duchor bo'ldim-u hanuz bilmayman:

Yonganimmi edi, yanchilganimmi...
Bir umr yo'limni yoritdi, ammo
Qanday bo'lgan bo'lsa boshida,
Hamon o'sha jo'shqin, sirli muammo,
Go'yo hamon o'sha o'n besh yoshida.

Yolchidim men ustoz-shogirdlardan,
Yana o'g'il-qizdan yolchidim.
Satrim sayqalini ko'rib shodlangan
Aziz she'rxonlar, sizdan yolchidim.

Endi bir armonim: o'zim ham sizga
Yolchitib bir fikr aytolsam edim.
Uzoq kelajakdan sizning dilingizga
Bir zumga bo'lsa ham qaytolsam edim..

* * *

Tim qora osmonda yulduz jimir-jimir...
Nafis tuyg'ularni jilovlab goho,
Aql ko'zi bilan izlayman baho:
Bu sirlarga yetmas bir umr...

Ularga aqlimiz nima bizlarning?!
O'ylarim o'zimga ko'rinar erish.
Shundaylari borki bu yulduzlarning,
Yer uning oldida zarradek emish!

Ha, bu olamlarning shundaylari bor,
Yildan uzoq emish daqiqalari.
Ba'zan bir kechada bo'ladi bekor
Ming yillik ilmning sahifalari.
Ana, kometadan sachradi uchqun,
Bosh uzra qilt etib uzildi bir barg.
Nega yashaymiz-u ketamiz bir kun,
Ko'kka intilishni etolmaymiz tark?

Armon bilan o'tdi eng buyuk donish,
Eng dovyurak uchqur qaytib kelmadı.
Boshqatdan boshlashning alami – tanish.
Hayot bu sirlarning go'yo ermagı.

Ammo inson notinch, kichik umrini
Shu buyuk sirlarga bag'ishlar hamon.
Unga tinchlik bermas, talpintirar uni
Yuksak, cheksiz va tanho osmon.

VELOSIPED

Gir aylanar atrofimda daraxtlar, gullar,
G'ildirakka ipak kabi chirmalar yo'llar.

G'uv-g'uv shamol yopishadi sovuq yuzimga,
Ufq go'yo kirib kelar qisiq ko'zimga.

Quvonaman, qiyqiraman, uchaman hamon
Momaqaldiroq gumburlagan dalalar tomon.

Naykamalak tovlanadi g'ildiragimda,
Go'yo bahor toshqinlari bor yuragimda.

Iliq yomg'ir pardasida quyosh shu'lasi,
Quchgim kelar yer-u ko'kni birato'lasi.

Chaqinlarga, dovullarga o'chakishganday,
Bu dunyoning bor tashvishi menga tushganday,

Oshiqaman, tezliklarga beraman bardosh,
Sochim to'zg'ir, keskir yeldan ko'zlarimda yosh...

Quvonaman, qiyqiraman, uchaman hamon,
Yomg'irdan so'ng lov-lov yongan dalalar tomon.

Xotira bu... hozir xuddi birdan uyg'ondim,
O'sha mahal men o'n to'rtga qadam qo'ygandim.

Bu yog'i-chi? Bu yog'ini eslayman elas,
Bu tomoni, ochiq aytsam, unchalik emas...

BULUTLAR – O'YLARIM...

Bulutlar – o'ylarim, og'ir o'ylarim,
Yurtim osmonida kezasiz.
Yerning ona bag'rin
Sizdan sizib o'tgan
Nurlar sezgisi-la sezasiz.
Goh tuyakarvonday siljysiz sokin,
Amuday to'lg'anib goh oqasiz.
Goh tog'larning kulin sovurguday,
Olamni tilkalab chaqmoq chaqasiz.
Goh dovul kelib, sizni daf'atan
Okeanlarga quvlab ketadi.
Garmsellar shabnam tomchingizni
Jonsiz sahrolarda zoye etadi.
Yerda tebranadi gullar, boshoqlar...
Bulutlar – o'ylarim,
 og'ir o'ylarim.
Ezgu umidim shu:
 Chanqoq qalblarga
Iliq yomg'ir bo'lib yog'ing, o'ylarim...

* * *

Telba daryo ekan umr degani,
Endi aql kirdi, endi tetikman.
Yoshlik kayfi bilan ko‘p mo‘jizani
Ko‘rmasdan, yonidan o‘tib ketibman.

Tunlar ko‘l tubida yulduz yonar ekan,
Quyosh sog‘inarkan shabnam tomchisin.
Bulutlar ortida tun to‘lg‘anar ekan
Qoyalarga charxlab chaqmoq qaychisin.

Qadrin bilmay umr lahzasining,
Tashvishlar band etdi ko‘nglimni.
Ko‘rdimmi men g‘uncha tabassumin,
Tabassum g‘unchasin ko‘rdimmi?

Yana kuz shamoli kezar bog‘larni,
Telbaday olamga sig‘maydi.
O‘zi yulqib, sovurib yaproqlarni,
Yalang‘och novdalar aro yig‘laydi.

Kunning so‘nggi nurin kuzatgan kezlar,
Kuzning hayajoni qalbga ko‘chadi.
Axir kechagi-ku bu kun, bu hislar,
O‘zim ham kechagi, olam kechagi...

O'z erkida doim g'azab-g'amalarim,
Nozik hislarimni tutdim kishanda.
Ot ustida o'lar aziz damlarim,
Bo'sh qolgan egari menga pisanda.

Men bilmayman ufqda qon talashgan
Yangi kunning qanday uyg'onganini;
Qanday qilib bitta sirli qarashdan
Qudratli muhabbat ulg'ayganini...

Bilmayman nimani shivirlar yaproq,
Bu qadim va har gal navqiron yomg'ir.
Nima tushlar ko'rар uxlaganda bog',
Nega ba'zan xayol bu qadar og'ir?

Bilmayman! Bilmayman!

Tashnaman, tashna.

Osmon moviyligin to'yib shimirsam!
Hissiz loqaydlikni uloqtirib tashla,
Olamni yoritgan yolg'iz shuursan!

Sen yig'lab tinglay bil umr kuzida
Yalang'och shoxlarda yel nolasini.
Rembrandtday o'qi inson yuzida
Shafqatsiz ajinlar yilnomasini.

Haykallar so'zlaydi inson baxtin, dardin,
Inson o'yda, inson mehnatda.
Men bo'lsam yana bir haykal ishlardim,
Mangulik bir haykal:

Inson hayratda!

* * *

Oftob nayzaga kelganda

To'rg'ay

Bir o'zi egallab osmon sathini,
Olamga tatigan bir hovuch nurday,
Hadsiz kengliklarning boshlar madhini.

Buyuk sukunatni solar hayratga,
Deysiz: butun borliq shunga qarammi?
Murg'ak qalb undaydi abadiyatga,
Kuyga to'ldiraman, deydi, olamni.

So'ng to'qqiz qavatli tor uyimizda
Biz uni orziqib eslavmiz elas.
Shunda u shunchaki bir qushcha emas,
Ulug' mo'jizadek ko'rinar bizga.

BIR SOAT

YEVROPADA QOLGAN QABRLAR

To‘xtab o‘tar bunda navbatma-navbat
Onalar, askarlar, chollar, vazirlar...
Gullarga burkanib yotar to abad
Yevropada qolgan qabrlar.

Xalqim, uning har bir bo‘g‘ini
Har go‘dakning umrin qadrlar.
Bunga yana undaydi uni
Yevropada qolgan qabrlar.

O‘lkam ko‘m-ko‘k, bog‘lar mehnatkash,
Yerni chirmab yotar tomirlar.
Shu bog‘larning ildiziga tutash
Yevropada qolgan qabrlar.

Yulduzday uzilar pishgan shirmoy non,
Tong shafag‘i kabi tandirlar.
Nasibalar uzilmaydi hamon,
Yevropada qolgan qabrlar.

Tongotar saf tortib vzvodda
Raketachi yangi kadrlar
Ont ichadi: bo‘lmas bezovta
Yevropada qolgan qabrlar!

Har bahor kimnidir yo‘qlar singari
Loladan tebrangan adirlar...
Qalbimning loladek o‘t parchinlari
Yevropada qolgan qabrlar.

«QIZ KO‘Z YOSHI»

Yo‘l chetida tikka qoyadan
Mo‘ltillab tomadi tiniq tomchilar...
Chindan ko‘z yoshiga o‘xshab ketadi,
Zab topib aytadi qurg‘ur nomchilar.

Kimlar keldi ekan birinchi marta,
Kim nom qo‘ydi ekan hazin buloqqa?
Balki, baxtsiz qizlar o‘ylab topgandir
Qalbga hamdard izlagan chog‘da?..

QO‘R

Urush yillarini siz bilmaysiz.
Hech qaytib kelmasin u choqlar.
Nonni qo‘ying, gugurt ham yo‘q edi,
O‘chib qolar edi o‘choqlar.

Kechin tezak yoqib, tikilib kulga,
Jindak qiya ochib mo‘rini,
Men o‘choq boshida mudrab o‘tirar edim
Tonggacha saqlay deb qo‘rini.

Esimda, bir kuni uxlab qolibman
Sovuq kulga tiqib oyog‘im.
Endi qo‘snilarga yugurish kerak,
Oyim bechorani juda ayadim.

O‘zim yugurib chiqdim ko‘chaga
Kim berarkin deya qo‘ridan.
Qayga chopay, kimga yalinib boray?
Tutun chiqmas edi hech bir mo‘ridan.

– Mehri xolangga bor! –
qichqirdi oyim.

Mehri xola degan kampir yashardi.
Chindan o‘chmas edi sira o‘chog‘i,
Butun mahallaga qo‘r ulashardi.

Men chopqillab qaytdim, yuzlarim qizil,
Chirs-chirs bozillardi otashkuragim;
Oyim duo qildi Mehri xolani,
U go‘yo bergandi bizga yuragin.

Unut bo‘lib ketdi u og‘ir kunlar,
Gaz plita yonar, mana, oldimda.
Ammo o‘chog‘ida qo‘ri o‘chmaydigan
O‘sha Mehri xola hamon yodimda...

* * *

Biron ishga qo'lim bormaydi,
Bahor epkinidan tunlarim uyg'oq.
Yana yiroqlarga meni chorlaydi
Qirda pirpiragan lolaqizg'aldoq.

Kayfi yomon ekan cho'l havosining,
Goh olib ketaman boshimni.
O'n olti yoshingni izlayman sening,
O'zimning o'n sakkiz yoshimni.

Shunday bahor kunlaridan biri
Seni ko'rgan edim tushimda.
Ochilganday mo'jizalar siri,
Maftun etgan eding qalbimni shunda.

Seni ko'rgan edim tushimda,
Butun umrim tush bo'ldi aynan.
Hali kelolmayman hushimga,
Hali-hamon uyg'onolmayman...

«Tokay yoshlar deysiz, ko‘ring soqolni,
Pushkin yoshidamiz, To‘qay yoshidal!».
Yoshlar yosh bo‘lishni istamay qoldi,
Biz quloq solamiz o‘ychan, osuda.

Bizni anchagacha yosh deb yurishdi,
Yoshlik edi bizga hunardek,
Oqsoqollar bizni boladek urishdi,
Hayiqardik. G‘ururlanardik.

G‘ururlanar edik yoshligimiz bilan,
Oqsoqollar bilan g‘ururlanardik.
Qirqqa kirganda ham yosh der edilar,
Yoshlik o‘ti bilan yonardik.

Sizga hamma narsa birdan bo‘la qolsa,
Tajriba, donolik, sabr, albatta.
Kimir qalbingizga osoyish solsa...
Talabingiz shunaqa katta.

Menga qolsa ko‘p kerak emas,
Faqat yoshligimni boy bermasam bas.
Qarib o‘lganimdan keyin keksalar
Yosh ketdi rahmatli desalar.

* * *

Eslaysanmi, jonim, u choqlarni –
Olamda go'yoki faqat o'zimiz...
Yolg'iz kezdik qancha so'qmoqlarni,
Maysalarda qoldi izimiz.
Qorda qoldi, qirovda qoldi,
Qoldi ko'klam yozgan gulli gilamda.
Qo'l ushlashib qochdik tongoldi,
Izlarimiz qoldi shabnamda.

Ko'rging keladimi o'sha yo'llarni?
Qishlar o'tdi, o'tdi bahorlar...
Kimlar uzdi ekan o'sha gullarni?
Erib tugagandir u qorlar.
Shabnam tuman bo'lib uchgandir,
Bizning izlarimiz o'chgandir.
Yangi qorga,
Yangi maysalarga
Yangi-yangi izlar tushgandir...

* * *

Goh yonadi qalbim, goho muzlaydi,
Xotiralar... tungi chaqmoqlarim.
Ular chaqmoq chaqib izlaydi
Yoshlik so'qmoqlarin...
Xotiralar, tungi chaqmoqlarim,
Menga umr yo'lni qayta so'ylangiz.
Yoritingiz chinor yaproqlarin,
Yulduzimdan oldin zinhor so'nmangiz.

GUL

Kechir, faqat bir gul edim man,
Axir gulga kim qilar o'pka?
O'zimni samoviy xayol etibman,
Bir umr intilib quyoshga, ko'kka.

Faqat qarib, so'la boshlagan choq
Boshim egildi-yu bamisolli yesir,
Ko'rdim – oyog'imning ostida tuproq,
Meni tikka tutgan shu ekan...

Kechir.

* * *

Borliq ko‘z o‘ngimda yaxlit namoyon,
Eski bilan yangi yonma-yon.

Tog‘ bag‘rida borar ho‘kiz imillab,
Osmon gumbaziga shoxi sanchilar.
Go‘yo shunday kelar u ming-ming yillab,
Go‘yo xudolar yo‘q davrdan kelar.

Kumush raketalar ko‘kka qadalgan,
Yonida tebranar lolaqizg‘aldoq.
Bir-biri tufayli bordek azaldan,
Go‘yo bir-biriga mute’ va ardoq.

Yerda neandertal chanoq beshikast,
O‘q gilzasi esa zanglab yotibdi.
Xirosima bilan Karfagen hamnafas,
Go‘yo bir-birini anglab yotibdi.

Reaktiv samolyot qanotlarida
Yiltillar qadimiyl, moviy qubbalar.
Shahrim shoshar, yonar quyosh bag‘rida,
Kunlarin kunlarga taxlab shibbalar.

Kecha, kecha edi Iskandar janglari,
Marsga qo‘nish esa ertaga.

«Bugun» deganimiz bir ko‘prik singari,
Beton ustunlari bizning yelkada...

* * *

Menga faqat xalta bering,
Xazina kerak emas.
Kelajakdan qarz olib yashayman,
Naqdina kerak emas.

Uyum-uyum buyum orasida
Qamal menga na hojat?
Mulozamat, shartli yurish-turish,
Amal menga na hojat?

Tunlar hatto har bir ko‘lmakdan
Yulduz milt-milt boqadi.
Daryo esa izlamaydi shuhrat,
Daryo tinmay oqadi.

Xayolimda buyuk sayyoohlarning
Qadam sharpasi.
Menga faqat xalta bering,
Safar xaltasi!

* * *

Tun qo'ynida qir, adir,
Mening uyqum ochadi,
G'irchillatib qaydadir
Shamol eshik ochadi.

Osmon qora yopganday,
Tunning uyqusi mahkam.
Derazamni qoqqanday
Daraksiz ketgan akam...

Mendan unga nima kerak?
Hech narsa kerak emas.
Oromimdan topsa darak,
Tinchligimni bilsa – bas.

Bog'lar shovullab turar,
Tunning uyqusi mahkam.
Chunki tunlar kezib yurar
Daraksiz ketgan akam.

* * *

Qalbda rag‘bat uyg‘onadi,
Dovul tursa dengizda,
Buyuk qudrat namoyishi
Go‘yo ko‘z oldingizda.

Xuddi shunday tomoshadir,
Yo‘lbars bo‘lsa darg‘azab,
Tortar vahshiy bir go‘zallik,
Buning ham shavqi ajab.

Chaqmoq chaqib yomg‘ir kelsa,
Oqaradi teraklar,
Sirli osmon gumburiga
Talpinadi yuraklar...

Faqat inson g‘azabi,
Faqat inson shovqini
Oshirolmash, toshirolmash
Yuragimning zavqini.

OLOV

O't-olov ko'p olamda –
Hammasini bilib bo'ladimi?..
Martendagi alanga
Eritadi Damashq po'latini.

Uzoqlarda yulduz so'nadimi –
Demak, uning ham bor olovi.
Hammasini bilib bo'ladimi...
Nima ekan uning qalovi?

Gulxan yo'qdan bor etadi
Ovchining o'ljasini.
Oddiy bir sham yoritadi
Kimningdir kulbasini.

Goh o't bir umr tutaydi,
Goh yilt etgan mash'um o'q.
Goh qalbni birdan o'rtaydi
Qorachig'da yongan o't.

Quyosh yonib, yam-yashil
Bahor hadya etadi.
O'tlar borki, chaqmoq, yashin!
Dog' qoldirib ketadi.

Odam ham o‘t-alanga,
O‘t bo‘lmasa, yig‘lab-kuladimi?
Odam ham ko‘p olamda,
Hammañini bilib bo‘ladimi?..

KECHIRISH AZOBI

Men seni kechirdim, boraver,
Balki, chindan hanuz sen norasida.
Dardim yengil bo‘ldi deya olmayman,
Qoldim orzularim vayronasida.

Bir vaqt bor mehrimni senga to‘kardim,
Ko‘zlariningda o‘qib baxtimni.
Nega bunday bo‘ldi, nega kelmading
Yoki biror marta sovuq boqdimmii?

Endi boshqa birov sening qoshingda,
Men hamon o‘qiyan ibodatimni:
Og‘ir alam bilan bo‘lsa ham hamon,
Hamon yod etaman dilda otingni.

Muhabbatni ardoqlay olmadik,
Nega yetolmadik uning qadriga?
Muhabbatga hudud bo‘lmasa ham,
Hudud bo‘lar ekan inson sabriga.

Nega, nega deyman,
Hech kim savolimga
Na javob beradi va na anglaydi.
Bu javobsiz qolgan savollarim
Faqat nola bo'lib yangraydi.

Men kechirdim seni, mayli, boraver,
Chindan ham sen hanuz bir norasida.
Lekin faqat menga oson tutma,
Qoldim orzularim vayronasida.

Men kechirdim seni, nafratlanmayman,
Ammo bu shunchaki yaxshilik emas.
Umring oxiriga borib bo'lsa ham,
Kechirish azobin anglay olsang bas.

DOV-DARAXTDA KO'KARADI BARG

Toshloq tog' bag'rimi, yashil vodiyimi –
Har joyning qalbingga aziz husni bor.
Taqdir ato etar senga bir vatan,
Avlod-avlodiningga, abad, ustuvor.

Kindik qoni to'kilgan joy deymiz,
Har kuni topamiz biron fazilat.

Bizning qishloq, bizning guzar,
bizning mahalla
Bir go'zal joydirki, olamga ziynat!

Obihayot deymiz oqqan arig'ini,
Bir tolini eslab g'amdan ariymiz.
Shunda qozonamiz yaxshi-yomon ot,
Shunda umr o'tar, shunda qariymiz.

Ammo dov-daraxtda ko'karadi barg,
Quyoshga o'xshashlik bo'lar odamda.
Butun yer yuzida yashaymiz, asli,
Biz yashaymiz butun olamda!

HAYOT BILAN QIYOS QILISH MUMKIN...

Goho o'ylab ko'rsam butun umrimni,
Anchagina ishga ulgurgandayman.
Xirmonlar turganday manzillarimda,
Xirmondan xirmonga yugurgandayman.

Yillarimni qoldirib keldim men
O'sha manzillarning oralarida.
Quvonchlarim malham
 qo'llarimning
Chanoq tilgan yaralariga.

Ko'ksim bilan kuzni shimiraman,
Yuzimga ilashar mezon ipagi.
Men shoshaman, meni hamon chorlar
Ufqlarning kumush etagi.

Hayronman, bu yo'lida og'irim yengil,
Tashvishlarim shirin, tonglarim oppoq;
Qo'llaringga birov mushtoq bo'lsa,
Osmon yaqin ekan, yer yumshoq.

Keng osmonni men yoritgandayman,
Xirmon shu'lasidir vodiylar uzra.
Har tolasi bilan chambarchas bog'lagan,
Hayotim sehrlab olgan mo'jiza.

Yillar, hatto ming yillardan buyon
Ishi, jozibasi, vazni ortadi.
Mehr-u quvvatimni tamom oladi-yu,
Lekin hamon meni o'zga tortadi.

Yer-ko'kka termulib beorom o'sdim,
Paxta sehri bilan xonam yorishib.
Quvonch-alam, ishonch-gumonlarim,
Orzu-armonlarim unda qorishiq.

Orom o'ldirarkan diplomatlarni,
Vaznsiz so'lg'indir shoir, bastakor.

Ne ajab, beorom ishqı mangı-yu
Shu bilan barhayot bo'lsa paxtakor.

O't olar, qo'shilsa burch bilan talant,
Uning qalbida ham shu o't yashaydi.
Tolasini go'yo jon rishtasidan,
Quyosh nurlaridan yigirib yasaydi.

Na g'am tashvishlari jonga tegar uning
Va na mo'lligidan ko'ngil to'ladi.
Uni hayot bilan qiyos qilish mumkin.
Faqt hayot shunday sehrli bo'ladi.

ENG QISQA SHE'R

Bugunimdan ertaginam go'zal –
Hali aytilmagan eng yaxshi g'azal.

OTALARGA MASLAHAT

Ikki o'g'lim, bir qizim bor, xudoga shukr,
Kelingiz ishonmaydi yer-u ko'kka.
Hammasi ham yaxshi-yu, birodarlar,
Omon bo'lurlarning tashvishi ko'p-da...

Birov yo'ldan urishi bor deganday,
Papiros, qizamiq, mast-u alastlar.

Nima ko‘p – badqiliq odam ko‘p,
Yomon ko‘zdan, ishqilib, o‘zing asra.

Kattasi deng, aroq ichsam,
suqlanganday,
Qush qarash qiladi, jibilajibon.
Papiros cheksam, naq cho‘g‘iga tikiladi!
Qarab tursam, tirmizak buziladigan!

Kirishmasam bo‘lmadi tarbiyasiga,
Avvalo, papirosni tashladim.
Xumor qilganida tunuka qutidan
Manpase shima boshladim.

Aroq ichmay qo‘ydim.
Gonorar chiqqandi
Lermontovning tarjimasidan,
Uyga olib keldim.
Keliningiz xursand
Bolalarining tarbiyasidan...

O‘rtanchasin qo‘ying! Aytganni qilmaydi,
Qilganni qiladi maymunday;
O‘qisam – o‘qiydi, yotsam – yotadi...
Oyimga qarashay desa-chi bunday!

Buni ham olmasam bo'lmaydi qo'lga:
Sahar turib o'tin yoraman,
Idish-tovoq yuvib, kir-chirni chaygach,
Gastronomga – nonga boraman...

Kelingiz o'zida yo'q xursand
Bolalarning fe'l-u xulqidan.
Ammo qiyin ekan bola tarbiyasi,
Qancha kayfdan qoldim, qancha uyqudan.

Botinkani yog'lab, galstuk bog'lab,
Soqollar qirilgan, kiyimlar bashang,
Muzey, teatrga qatnayman tez-tez...
Madaniy bo'lsin-da bu uch zumrashang!

Tuppa-tuzuk bo'lib qolishdi deng,
Kattasining yo'q bilmagani.
Ayniqsa, kenjası,
 hali bir yashar-u,
O'zimga o'xshaydi, sipo, madaniy...

Shunday tajribani qo'llab ko'ring-a,
Bola, axir, umrning naqshi.
Yoshligidan boshlang tarbiyasini,
Tug'ilmasdan boshlasangiz
 yana ham yaxshi.

TURDI MAJNUN

Turdi majnun deyishadi
Qo'shnimizning otini.
Shu majnunlik tufaylidan
Tashlab ketdi xotini.

Asli, majnun emas. Faqat
Egni-boshi eskiroq.
Ko'ngli toza. Menga qolsa
Ba'zilardan esliroq.

Qariganda yolg'iz qolgan,
Olchi kelmay oshig'i.
Shundanmikin, goh fe'li
G'alatiroq, ochig'i.

Pensiyasi katta emas,
Turib olar azonda.
Qo'lga jindek chaqa tushsa,
Yo'rg'alaydi bozorga.

Qush oladi – mayna, to'ti,
Sa'va, bulbuligacha.
Qush oladi, qush oladi
Oxirgi puligacha.

Qush oladi: bedananing
Sayroqisin, tullagin...
(Makyon-pakyon chiqib qolsa,
Turdivoyga pullagin.)

Qafas bilan ko‘taradi,
Kelib qolsa omadi.
Tanlab-tanlab, savdolashib,
Janjallahshib oladi.

Qush tilini bilar emish,
Odamlarning so‘zicha.
Yo‘l-yo‘lakay qushlar bilan
So‘zlasharmish o‘zicha.

Shundan borib keng dalaga,
Maysaga to‘s h urarkan.
Qushlarni bitta-bitta
Osmonga uchirarkan.

Har kim har xil qaraydi
Bu ko‘ngil xushliklarga...
Turdi uzoq tikiladi
Zangori bo‘shliqlarga.

Hamma hayron, nega olib,
Nimaga uchiradi?

Bu qilig'i Turdivoyni
Necha pulga tushiradi?

Shuning uchun majnun derlar
Turdivoyning otini.
Shu majnunlik tufaylidan
Tashlab ketdi xotini.

Asli, majnun emas, faqat
Usti-boshi eskiroq.
Ko'ngli toza.
Menga qolsa
Ba'zilardan esliroq.

Tongni sayrab qarshi olar
Turdivoyning qushlari.
Ko'z o'ngimda ufqlarni
Qiyalab uchishlari...

SHO'RLIK

U urishib qoldi xotini bilan,
Shartta chamadonni oldi yelkaga.
– Bas, sen bilan yashagandan ko'ra
Ketaman bironta olis o'lkaga!
Sahroga ketaman, Qutbga, Chukotkaga,
Kosmosga! Undan ham nariga!
Mayli, muzlab o'lay, ayiq yeb ketsin,
Bo'ronlar, quyunlar yutsin qa'rige!
Mayli, pachoq bo'lsam fazo zulmatida
Biron planetaga to'qnashib...

Chiqib ketdi sho'rlik,
Xayrlashmadi ham.
Balalari qoldi uqlashib.

Besh minutdan keyin
qaytib kirdi-yu
Serpisanda qilib chaynadi gapni:
– Omading bor ekan, e xotin,
Yomg'ir yog'yapti...

AFSONA

Qadim arman yerida
(Bizga aloqasi yo‘q)
Go‘zal tonglarning birida
Paq etib otildi o‘q.
El ustiga ofat yetdi,
Dushman bosdi o‘lkani.
Omon qolgan qochib ketdi,
Yerda qoldi o‘lgani.
Shahnoz ochdi darpardasin
Osmon o‘par ko‘shkida.
Bosqinchilar sarkardasi
Yonar uning ishqida.
Kelganida vahshiydek
Malika eshik ochmadi.
Bundan o‘lim yaxshi deb
Derazadan tashladi...

– Shumi?! – dersiz. Quloq soling,
Eng qizig‘i bu yoqda.
Malikamiz tirik qoldi,
Yumshoq qo‘ndi o‘tloqqa.
Chunki xuddi parashyutday
Ochilgandi etagi...
Tamom bo‘ldi mana sho‘tta
Malikaning ertagi.

Ammo gap bor qizlarga,
– Nima bo‘pti! – demanglar.
Saboq shuki sizlarga,
Mini yubka kiymanglar...

SIRLI NIDO

Yangi kun, umrimning yangi tilsimisan,
Yer-u ko‘kning sirli nidosi.
Orzularning xarobasimisan,
Baxtning tutqich bermas biror jilosi?

Ushalishimisan umidlarimning,
Armonlarning tug‘ilishimi?
Ruhimdagи og‘ir yuklarimning
Olsang edi jilla bir ulushini!

Xonamni ol iliq bag‘ringga,
O‘ylarimga hakam bo‘l xolis,
Yo‘lchi yulduz bo‘lgin izlanishlarimga,
Topgan hurmatimga – munosib voris.

Seni bor umrimga almashsam mumkin,
Faqat omad keltirgin zinhor.
O‘lmas bir misraga aylanish uchun
Uzoq azob chekib yashaganlar bor...

Kechirar mening bu ro'y-rost hissimni,
Agar she'riyatning bo'lsa xudosi.
Yangi kun, umrimning yangi tilsimi,
Yer-u ko'kning sirli nidosi.

KARDIOGRAMMA

Har kun kayfiyatni ming bor o'zgartar,
Qo'shiqlar bo'g'ilar qanchalab.
Bizga yetib kelar begona dardlar
Radio to'lqinlarin parchalab.

Endi orzulardan xotiralar ko'p,
Endi o'tmishgina men uchun hadsiz.
Men uchun tobora og'irdir sukut,
Savollar tobora shafqatsiz.

Ha, oshni oshadik, yoshni yashadik,
Qoshgacha qahraton qirovi indi.
Bir qarashda: besh kuningni o'yla,
Ertaning qayg'usi qoldimi endi?..

Ammo, o, kelajak, tahlikalaring
Aks etar yurakning «qiliq»larida,
Chaqmoqday chaqilar kardiogrammaning
Darddan chil-chil singan chiziqlarida.

HAQIQAT

Tug‘ilish hamisha muqarrar emas,
Bu – ma’lum haqiqat,
O‘lim ham hech «men nohaqman» demas,
Bu – mal’un haqiqat.

Kapalakning hatto haqiqati tayin,
Mehnatkash dehqonning o‘z haqiqati,
Haqiqatin dovlar mahkum, oshiq, la’in,
Shoirlarning so‘z – haqiqati.

Ha,
Dunyoda haqiqatlar cheksiz,
Haq-u nohaq undan umidvor.
Lekin biz
haqiqat bittagina deymiz.
Chunki
buning bari
bizga daxldor!

BOLALIKDA

O‘q yog‘madi bizning boshimizga,
Dahshatni onalar ko‘zidan bildik.
Ochlik esa bizning yoshimizda
Urushning bir kunin ko‘rsatar yildek.

Yo‘q, qolmagan dushman bombasidan
Tanamizda zanglagan pora.
Ammo onalarning qaynoq ko‘z yoshidan
Bizning yonoqlarda abadiy yara...

* * *

Mavridida keldi bu yil Do‘rmonning kuzi:
Havo sokin, ko‘lmaklarda suvlar muzladi.
So‘nggi yaproq chirt uzildi o‘zidan o‘zi,
Ha, o‘zidan o‘zi, uni hech kim uzmadi.

Pildiraydi tovlantirib shafaq zarhalin,
Ona-Yerda chirir endi bearmon bu barg...
Qanday yaxshi bu hayotdan uzilmaganing
Toki hayot seni etmaguncha tark!

XAFA BO'LGANIMDA YOLG'IZ YURAMAN

Bir vaqt do'stlar bilan hasratlashardim...
Yolg'iz o'tkazaman g'amgin chog'larni.
Sukunatni cho'chitmasin dardim,
Aylanib o'taman sokin bog'larni.

Shabnam yaproqlarning yuvibdi gardin,
Xayolga chulg'abdi gulzorni nasim.
Jonlar oromini buzmasin dardim,
Tunni uyg'otmasin.

Bezovta qilmasin ma'sum qushlarni,
Nogoh bo'linmasin ona allasi.
Hurkitmasin dardim shirin tushlarni
Ezgu tong nallasi.

O'z dardimni ichimga yutaman,
Olamning beg'ubor tongin kutaman.

* * *

Qaytaman kechirgan kunim yelkalab,
To'shakka gurs etib otaman.
Horib-tolgan chol bo'lib yotaman,
Go'dakday turaman yana ertalab.

Ko'zlarimga o'tar tongning sofligi,
Rejalar, orzular mo'l va ko'ngil to'q,
Yomonlikdan unda asar ham yo'q,
Yo'lga talpintirar yashash shodligi.

Ostonadan burch yetaklab o'tar,
Yengil chang qo'ziydi yo'llarda.
Hayajonlar, muammolar kutar,
Goh mehr, goh kibr qisgan qo'llarda.

Oftob tikkaga o'rlagan sari
Yurakning urishi tezlashar,
Unda odamlarning manfaatlari,
Ko'z qarashlar tikka kezlashar.

Goh kelajakdasan, goh tarixda,
Kimir o'qqa nishon – ko'ksing tutasan,
O'zing yiqlganda najot kutasan,
Ezgulik, yovuzlik ba'zan omixta.

Adolatni hech kim qilmas sadaqa,
Har qadaming talofatli jang.
Xatodan, saboqdan manglaying chaqa,
Hansirab oyoqda turasan arang.

Meni suyab qolar faqat qoniqish,
Goho eslolmayman – uyim qay tomon.
Bilmam: hayotmi bu, undan toliqish?
O‘tdan chiqqan kabi charchab qaytaman.

Qaytaman orttirgan yukim yelkalab,
To‘sakka gurs etib otaman.
Horib-tolgan chol bo‘lib yotaman,
Go‘dakday turaman yana ertalab.

BIR TOMCHI

Mening shaytonim bor.

Ayyor sho‘xlik emas
Yoki bir yelkamni qilganmas makon,
Bir qop yong‘oq ekan deb ham o‘ylamang,
Mening shayton do‘stim – chinakam shayton.

Kirib o‘tiradi bekorchilikda
Eshikdan, tirqishdan – bilmay qolaman.
Baloday faylasuf mening shaytonim,
Gapiga beixtiyor quloq solaman.

Shoxi ham yo‘q, dumi ham yo‘q uning,
Uncha o‘xshamaydi ajdodlariga.
Lekin o‘ta sezgir dunyoning aybi,
Xatosi, nolishi, faryodlariga.

Bahslashamiz naq dushmanlarcha,
Zardobni ayamay rosa to‘kadi.
Balandparvoz deydi, chuchmal, madhiyaboz,
Hatto farishta deb meni so‘kadi.

– Kir qidirma, – deyman, – zimiston deding,
Axir, o‘tiribmiz yorug‘da, kunda!
– Ha, – deydi, – yuzada bo‘lmas zimiston,
Sen bunday teranroq tushgin-da!

– Aslingga tortasan, og‘ayni, – deyman, –
Tamug‘ning tubidan chiqqan yuhosan.
– Ha, – deydi shaytonim, o‘rnidan turib, –
Ha, o‘zingga kelding: o‘tdan qo‘rqasan.

– Kim o‘tdan qo‘rqadi?! – deyman shoshilib.
Atrofga qarayman, u yo‘q yonimda!
Meni hushyor qilib, bir tomchi zahar
Yo‘qolib ketadi issiq qonimda...

UYQU QOCHGANDA...

Tong oldidan uyqu qochganda
Onalar qoshiga kelar o'g'lolnar...
Uzoqlardan kelar uzoqdagi jangda
Onalar tinchi deb halok bo'lganlar.

Ular juda horg'in, etiklari chang,
Onalar boshida turishadi jim.
Onalar qalbida nimalar kechar,
Nimalar uzilar, kim biladi, kim?

...Askarlar dozorni tugatishadi.
Onalar ularni abadiy jangda
Yana bir o'limga kuzatishadi
Tong oldidan uyqu qochganda...

NAVO

Qamishdan nay qildi cho'pon. Yetim, yolg'iz.
Nay navosi yangrar yiroq-yiroqda.
Shundan beri har tong ko'za tutgan qiz
Keladigan bo'ldi buloqqa.

Ko'p asrlar o'tdi, nuradi xarsanglar,
Endi yo'q, albatta, dunyoda cho'pon.

Nay ham chirib ketdi...

Navo esa yangrar

Va qiz hanuz kelar buloqqa har tong...

YOSHLIK HAMON HAQ

Qo‘polliklar, achchiq zardalar

Unutilar misli yo‘lakay sayil.

Bir umr qalbingni ammo burdalar

Mayingina aytilgan «Xayr...»

Yoniq derazalar chaqirar, sudrar,

Tanish tolko‘chaga kiraman sekin.

Namgarchilik, kuz kechasi mudrar,

Qalb sho‘rlik begona, yetim...

Bu – xotira, eski bir kuy chalar,

Olislarda esa yangraydi chaqchaq.

O‘sha yomg‘irli tun, o‘sha ko‘chalar...

Yoshlik hamon haq.

* * *

Oh, bahor yellari, ko‘ksim sovuting,

Qarzingiz she‘r bilan uzarman.

Chalg‘iting siz meni, aldang, ovuting,

Uni ko‘rmay qanday to‘zarman?!

Qizg'anib, tasvirin chizmaganim chin.
Qanday o'zi deya so'rarsiz.
Men hushsiz yiqlsam, ko'zlarimni oching –
Qorachiqlarimda Uni ko'rarsiz.

BILET BAHOSI

Mana, biz ham qariyb yashab o'tdik,
Tomoshaga o'xshar hammasi;
Yetmish betlik yoki sakson betlik
Shekspir dramasi.

Ha, eng yaxshi spektakl –
inson,

Konfliktlar uning shaxsida.
Ba'zan o'zi ustun, ba'zida shayton
Manfaat-u vijdon bahsida.

Teatr davom etar qishin-yozin,
Unga kirish bepuldir.
Hayhot,
Chiqish uchun bilet olish lozim.
Bilet bahosi –
hayot.

DARAXTLAR

Tush ko'ribman bugun.

Guzarda

Yiqilgan mish bir keksa terak.

Onam ta'bir aytdi:

kimdir qariyalardan

Qazo qilsa kerak....

Tush-u cho'pchaklarga ishonmayman zarra,
Meni kechir, mushtipar ona.

Ammo inonaman dov-daraxtlar-la
Robitamiz bordir sirli, pinhona...

To'g'ri, planetaning o'pkasi ular,
Lekin gap xromosoma haqida emas.
Boqsam, xotiraday, mungday tuyular,
Go'yo ajdodlarni eslayman elas.

Chindan, balki, ular odamizodga
Jigarband bo'lgandir bir vaqtlar?
Yo'lga chiqsak, go'yo qo'l uzatgan,
Kuzatib qoladi bizni daraxtlar.

Har biri o'zicha go'zal va mag'rur,
Biz uchun yasanar, o'zgartar tusin.

Ular ham bizlarsiz, balki, yasholmaydir,
Kimga ko'rsatardi, bo'lmasa, husnin?

Nafaslari bilan nafasimiz tutash,
Sokinligi bilan – dilning oromi.
Muqarrar bir qismat, bir mehri otash
Bog'lab turar bizning orani.

Daraxtlar biz bilan so'zlashmaydi,
lekin
Shiviri ulanar o'ylarimizga.
Ruh so'lg'in, yomg'irli kunlarda sekin
Darchadan boqarlar uylarimizga.

Daraxtlar mehrning yetar qadriga,
Loy chaplab yarasin tuzatganmisiz?
Daraxt o'stirganning
daraxt qaddiga
Qarab turishini kuzatganmisiz?..

SAFARINGDA KOR KELADI...

Sen uchun,
Sen agar beparvo bo'lsang ham,
Bilmaslikka olsang ham o'zni,
Sen uchun
Shu so'zni toshdan yasayman,
Yarataman oltindan, nurdan,
Azoblardan, qalb dardidan, durdan,
Sayqallayman faqat shu so'zni:
Sevaman.

Sening uchun
Ardoqlayman ezgu armon kabi,
Tildan qo'y may tunmi, kunduzmi,
Xuddi imon kabi,
Xuddi vijdon kabi,
Ketsam yuragimda olib ketaman,
Muqaddas cho'g'dayin
Kaftimda eltaman
Umrim so'ngigacha shu so'zni:
Sevaman.

Sen uchun,
La'natlab ketsang-da magar,
Toabad ko'rishmas bo'lsak agar yuz,
Orada uzilib jonli rishtalar,

Batamom unutsang meni,
ehtimol,
Safaringda kor keladi, ol,
Birdan bir hamisha tirik so'z:
Sevaman.

AYAJONIMIZ

Titrab yangrar edi ufqlar tongda,
Go'zal kuylar edi ayajonimiz.
Bulutlar to'lg'anar edi osmonda,
Jajji yuraklarda – hayajonimiz.

Kuyni qari-qartang mukka tinglagan,
Bunda ojiz edi har qanaqa so'z.
Urush mo'ralardi qo'lsiz yenglardan,
Yupun xirmonlardan – bebaraka kuz.

Ayam ko'kka qushday intilar edi,
Etagidan ushlab diydirardik biz.
Yashil ko'saklarda mo'ltillar edi
Chala qolgan kuydek bolaligimiz.

Bulutlar bezovta edi osmonda,
Jajji yuraklarda – hayajonimiz.
Dadamizni eslab shunday har tongda
Mungli kuylar edi ayajonimiz.

Kuy bo'lib uchmoqni qilardi orzu
Dadamizni eslab shunday har tongda.
Ammo qanotlarin yozolmasdi u,
Chunki biz bor edik qanot ostida.

* * *

— She'rimda bir satr zaifroq edi,
Tuzatishga ijozat bering.
Vaqtiz ziq, asabiy muharrir dedi:
— Sexga tush, harf terish sexida she'ring.

Sexda bexos bir zum tindi ko'zlarim;
Linotip vallari aylanar edi.
Qo'rg'oshin satrlar,

mening so'zlarim

Go'yo oboymaga joylanar edi.

...Shundan buyon so'zlar puch-u sarak,
Goho yengil tuyuladi.

Yo'q,

Ular o'qday vazmin bo'lishi kerak,
Qo'rg'oshindan quyiladi o'q!

SUKUT QA'RIDA

Borasan o'zingni, yurtingni o'ylab,
Oltin rang, niliy rang yonar, goh o'char.
Shu'laga yo'g'rilib mezonlar uchar...
Ha, yangroq, qadrdon vodiylar bo'ylab
Yana kuz kezadi.

Qarqunoq parvozda yaproqdan yengil,
Go'yoki oldinda qish emas, bahor.
Bog'larda azaliy nafis bir ifor...
Entikib kutmoqqa o'rgangan ko'ngil
Nimadir sezadi...

Bunday tuyg'u bilan, bu gurkiragan
Sokin kunni xira qilmoqchimasmen,
Kuz undoq, kuz mundoq demoqchimasmen,
Lekin qaytmas bir on kelib xotiraga,
Yurakni ezadi.

Bu shundan, ehtimol: sukut qa'rida
Yechilmagan o'ylar urug'i pinhon.
Goh kutmagan joyda unadi nihol.
Bunday damlar doim hayot yo'llarida
Ruhimni bezadi.

MO'JIZALAR

Mo'jizani qarang: gulga ari qo'ndi,
Gul, balki, Zaminning qalb o'tidir.
Qahrabo zarralar, balki, asal emas,
Balki, tabiatning ona sutidir.

Qaldirg'ochlar uchdi Quddusdan, Shomdan,
Ayvon peshtoqidan tinch joy hozirla.
Katta mo'jizalar sodir bo'lgungacha
Kichik mo'jizani qadrla.

Sahnada ariya ayta olmasang,
Oddiy bir qo'shiqni xirgoy qilib yur.
Yashnatsin aqalli puch bir oningni,
Onlarni yashnat-u davroningni sur.

Razm sol, o'yga tol, hayratda talpin,
Bir zum loqayd tepmasin yurak.
Kattasini kut-u kichigidan qolma,
Kichik mo'jizalar har kuni kerak.

MUNDARIJA

El-yurt.....	3
Muqaddaslik	5
Umr yo'li.....	6
Tabiat.....	6
Bosh satrlar	7
Yashash oson emas	9
Nega she'r yozasiz?	10
«Uxlamay...»	11
Vatan	12
«Eslab yoshligimni – she'r ilhomchisin...»	13
So'z	13
«Bugun bayram...»	15
So'zlar.....	16
«Aziz inson, senga nima kerak?...»	17
Bahor mevalari.....	18
Havas qilmayman	19
Hamon hayot maqsadimdir	20
Yillarim	21
Men yasharman	23
Amu.....	23
«O'lchovi bor har mahsulotning...».....	24
«Hisobga olmaymiz hayotimizning...»	24
She'riyat.....	25
«Ikki narsa og'ir ko'nglimga, asli...»	28
«Umrim uzoq bo'lar...»	28
Sobirman	29
Tong edi.....	30
Bola	31
Bahodir	32
Qaynona	33

«Oramizda erka-yu mag‘rur...».....	33
«Men ko‘p yo‘llar yurdim...».....	34
Qoraqum	35
«Ishonchsiz qadamlar...».....	35
Ikki eshik orasi.....	35
«Onajoni uning...»	37
Shunday tinchlik cho‘ksa.....	38
Umr	38
Bog‘im.....	39
Momaqaldiroq	40
Boychechak	40
Daqiqa va abadiylik	40
Qo‘sним.....	41
Nihol	41
«Daraxtlarni burkab...».....	42
Chegaradan o‘tganda.....	43
Mendan nima qolar?	44
Yangi kun tug‘ilar	45
«Pop» etib naqsh olma tushdi yo‘lakka...».....	45
«Temir og‘ir derlar...»	46
«Siklonlarning bag‘rin tilib...».....	48
Zarrama-zarra	49
Portret	50
«Yarim tundan keyin...».....	52
«Hujayra bo‘linib...».....	53
«Tushlarim, bezovta tushlarim...».....	54
Poklanish	57
Hadik.....	58
«Bosh egib turishing hali ko‘z oldimda...»	58
Qog‘oz	59
Debocha	60

«Qish bahorga oshiq bo'lib...»	61
«Yana azongacha uyqum kelmadi...».....	62
Tosh.....	63
«Sendan yaxshi bilar seni xotining...»	64
«Tong oldi tinch...».....	65
«Qo'shiq havolaydi...»	67
«Inson yo'llar solgan».....	68
Xotiralar.....	69
Xom olma.....	70
Terak.....	71
«Oradan gap qochsa, yaraday qiynar...»	72
Ruboiy	72
«Eshik qoqayotir elligim...»	73
«Tim qora osmonda...»	74
Velosiped	76
Bulutlar – o'ylarim.....	77
«Telba daryo ekan umr degani...»	78
«Oftob nayzaga kelganda...».....	80
Bir soat.....	81
Yevropada qolgan qabrlar	82
«Qiz ko'z yoshi».....	83
Qo'r	83
«Biron ishga qo'lim bormaydi...»	85
«Tokay yoshlar deysiz, ko'ring soqolni...»	86
«Eslaysanmi, jonim, u choqlarni...».....	87
«Goh yonadi qalbim, goho muzlaydi...»	88
Gul.....	88
«Borliq ko'z o'ngimda yaxlit namoyon...»	89
«Menga faqat xalta bering...»	90
«Tun qo'ynida qir, adir...»	91
«Qalbda rag'bat uyg'onadi...»	92

Olov.....	93
Kechirish azobi.....	94
Dov-daraxtda ko'karadi barg.....	95
Hayot bilan qiyos qilish mumkin.....	96
Eng qisqa she'r.....	98
Otalarga maslahat.....	98
Turdi majnun	101
Sho'rlik.....	104
Afsona.....	105
Sirli nido.....	106
Kardiogramma.....	107
Haqiqat	108
Bolalikda	109
«Mavridida keldi bu yil do'rmonning kuzi...»	109
Xafa bo'lganimda yolg'iz yuraman	110
«Qaytaman kechirgan kunim yelkalab...»	111
Bir tomchi.....	112
Uyqu qochganda.....	114
Navo.....	114
Yoshlik hamon haq	115
«Oh, bahor yellari, ko'ksimsovuting...»	115
Bilet bahosi.....	116
Daraxtlar	117
Safaringda kor keladi.....	119
Ayajonimiz.....	120
«She'rimda bir satr zaifroq edi...»	121
Sukut qa'rida.....	122
Mo'jizalar	123

Adabiy-badiiy nashr

Asqad MUXTOR

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 24.03.2020-y.

Offset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 70x84¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Sharthli b.t.: 5,2.

Adadi: 4000 nusxa.

Buyurtma № 93

«Akademnashr» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.


Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Ziyolilar ko‘chasi 6-uy.

ISBN 978-9943-6362-3-1



9 789943 636231